

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqqan
boshlagan

2025-yil 17-yanvar
№3 (3117)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz

Armiya

*Metinday mustahkam qo'rg'on armiya,
Vatanning holini so'rg'on armiya.*

*Katta bir qo'shinni mavh etgan Shiroq,
Mudom ozodlikka qalqon armiya.*

*Yovni dovdiratgan yovqur bahodir,
Spiteman – mardi maydon armiya.*

*Iymoni salomat Najmiddin Kubro,
Shaksiz Jaloliddin Sulton armiya.*

*Adolat birla el-yurtlar so'ragan
Amir Temur sohibqiron armiya.*

*Dukchi eshonlarning o'tlig' armoni –
Muazzam Turkiston, Turon armiya.*


*Jadidlarning ochiq ketgan ko'zlari –
Ko'kdan boqib turgan cho'lpon armiya.*

*Xalq bilan armiya bir tan-u bir jon,
Tinchlig-u hurlikka posbon armiya.*

*Birlashsak, bo'linmas Vatan hech qachon,
Vatan der, Vatan der har on armiya.*

*Mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri,
Shavkati olamga doston armiya.*

G'ayrat MAJID



14

YANVAR

VATAN

HIMOYACHILARI KUNI

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUHLARI TASHKIL ETILGANING 33 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

**Hurmatli askar va serjantlar,
ofitser va generallar!**

**Muhtaram Qurolli
Kuchlarimiz faxriylari!**

Qadrli yurtdoshlar!

Siz, azizlarni, ko‘p millatli butun xalqimizni O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Barchamiz uchun shon-sharaf timsoliga aylangan mana shu qutlug‘ ayyomda o‘z hayotini Vatan himoyasidek ulug‘ ishga bag‘ishlagan botir va dovyurak o‘g‘lonlarimizni, muhtaram faxriylarimizni tabriklab, ularning sha‘niga eng ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

Sizlarning azm-u shijoatingiz, el-yurtga sadoqatingiz tufayli xalqimizning tinch va osoyishta hayoti ta‘minlanmoqda, mamlakatimizning mudofaa salohiyati mustahkamlanmoqda, milliy armiyamizning jangovar qobiliyati yuksalmoqda.

Yurtimiz bo‘ylab jasorat madhiyalari yangrayotgan bugungi ulug‘ kunlarda Vatan oldidagi burchini ado etish chog‘ida halok bo‘lgan qahramon harbiylarimizning so‘nmas xotirasi oldida barchamiz hurmat bajo keltiramiz.

Fursatdan foydalanib, mard va bahodir yurt posbonlarini tarbiyalagan barcha ota-onalarga, harbiy xizmat davomida Vatan himoyachilariga tog‘dek tayanch bo‘lib kelayotgan ularning oila a‘zolariga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Aziz do‘stlar!

Keyingi yillarda olib borayotgan keng ko‘lamli islohotlarimiz tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta‘minlashning chinakam kafolatiga aylanib bormoqda.

Barcha qo‘shin turlari zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta‘minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma‘naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib bormoqda. Milliy armiyamiz ular uchun, yoshlarimiz uchun mardlik va shon-sharaf maktabiga aylanmoqda.

Eng muhimi, xalq bilan armiya toborayaqin bo‘lib borayotgani harbiy soha rivojiga yangicha kuch va sifat bag‘ishlamoqda.

Bugungi kunda navqiron avlodimiz o‘rtasida harbiy xizmatga qiziqish kuchayib, minglab yigit-qizlarimiz Vatan himoyasiga dadil bel bog‘layotgani barchamizni cheksiz quvontiradi. Biz ana shunday o‘tyurak farzandlarimiz timsolida bo‘lg‘usi qahramonlarimiz, Qurolli Kuchlarimizning bo‘ljak ofitser va generallari, mohir qo‘mondonlarni ko‘ramiz.

Ayni vaqtda barchamiz yaxshi anglaymizki, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida turli xavf-xatarlar, qurolli to‘qnashuvlar tobora avj olib borayotgan o‘ta murakkab vaziyatda

Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma‘naviy shayligini oshirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu munosabat bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi asosida bu borada boshlagan ishlarimizni mutlaqo yangi sifat bosqichiga ko‘tarishimiz shart. Xususan, Qurolli Kuchlarimizni yangi, modernizatsiya qilingan o‘t ochish tizimlari va texnika bilan ta‘minlashni harbiy harakatlar teatri xususiyatlarini, qo‘shinlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda davom ettiramiz.

Harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maktablarda boshlang‘ich harbiy ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchi-yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratamiz.

Askar va ofitserlarning professional mahorati, harbiy bilim yurtlarida ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish, malakali harbiy kadrlar zaxirasini yaratish doimo ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi.

Harbiy xizmatchilar, ularning oila a‘zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini ijtimoiy himoya qilish, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bundan buyon ham diqqatimiz markazida bo‘ladi.

Ana shu muhim vazifalarni bajarishda, hech shubhasiz,

harbiy-ma‘muriy sektorlar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilikning faol ishtiroki g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Chunki xalq bilan muloqot va maslahat asosida, uning ishtirokida amalga oshirilgan ish albatta qudratli ijobiy kuchga ega bo‘ladi.

Umuman, bugungi kunda barchamiz – qaysi soha yoki tarmoqda, qanday lavozimda ishlamaylik, Vatan himoyachisi bo‘lishimiz zarur. Bu talabni davrning o‘zi oldimizga qat‘iy vazifa qilib qo‘ymoqda va xalqimiz ham bizdan aynan shuni kutmoqda.

Qadrli Vatan himoyachilari!

Ona yurt qalqonlari, tinchlik posbonlari sharaflanadigan mana shu quvonchli kunda siz, azizlarni shonli bayramingiz bilan yana bir bor chin dildan qutlayman.

Barchangizga muqaddas qasamyodingizga sodiq qolib, xizmat burchingizni yuksak darajada ado etishda mustahkam sog‘liq, ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik, fayz-u baraka tilayman.

Jonajon Vatanimiz himoyasi yo‘lida hech qachon tolmang, yutuq va zafarlar doimo sizlarga yor bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh
Qo‘mondoni**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING F A R M O N I

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida

Mamlakatimiz mudofaa qudratini oshirish, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini yuksaltirish, professional milliy armiyani shakllantirish, davlat xavfsizligi va chegaralarimiz daxlsizligini ta'minlashdagi katta xizmatlari, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni, xalqimiz osoyishtaligini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi ibratli faoliyati, sharaflari va muqaddas burchini bajarishda mardlik va jasorat ko'rsatgani, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo'shgan munosib hissasi uchun quyidagilar mukofotlansin:

“MARDLIK” ORDENI BILAN

Dedaxonov Musoxon Alyorovich – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Ismoilov Baxtiyor Axmadjonovich – Farg'ona viloyati prokurori

Rasulov Farrux Sadulloyevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandiri

Sayipov Bektosh Raximovich – Qashqadaryo viloyati prokurori

Toshqorayev Olim Eshmo'minovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism bosh serjanti

Umurzakov Sharof Kuchiyevich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xizmat boshlig'ining o'rinbosari

Egamberdiyev Muzaffar Eminovich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi direktori

Egamyorov Farxodbek Abdumalikovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism komandirining o'rinbosari – bo'lim boshlig'i

“DO'STLIK” ORDENI BILAN

Pirmatov Alisher Ashurmatovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi markaziy devoni boshqarma boshlig'i

“JASORAT” MEDALI BILAN

Akramov Abbosjon Axtam o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisi

Irgashov Baxtiyor Erkinovich – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi muhim ishlar bo'yicha katta tezkor vakili

Isakov Alisher Raxmatullayevich – Toshkent shahri Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi qutqaruv otryadi guruh qutqaruvchi-yo'riqchisi

Muxitdinov Islombek Zafarbek o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism otryad komandiri

Suyarqulov Ravshanbek Suyarqul o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism vavod komandirining o'rinbosari

Toshmatov Zafarbek Anvarovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism eskadrilya komandirining o'rinbosari

Utegenov Dauran Aymuratovich – Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili

Sharipov Javlonbek Hakimjon o'g'li – Toshkent shahri Bektemir tumani bo'yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi patrul-post xizmati inspektori

“SODIQ XIZMATLARI UCHUN” MEDALI BILAN

Abdullayev Nodirjon Abditolib o'g'li – Toshkent viloyati prokuraturasi bo'lim boshlig'i

Axmedov Bahridin Hoshimovich – Samarqand harbiy sudining raisi

Bakirov Shokir Kuchkarovich – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad katta haydovchi-qutqaruvchisi

Dadaxonov Xamidullo Vaxobovich – Andijon viloyati Izboskan tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Djumabayev Baxrom Kurbanaliyevich – Toshkent viloyati Nurafshon shahri ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Jumabayev Sherzod Avazovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism seksiya komandiri

Kamalov Abdurasul Anvarovich – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Respublika qutqaruv markazi otryad katta yo'riqchi-qutqaruvchisi

Minajov Reymbay Oteuliyevich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish koloniyasi boshlig'ining o'rinbosari

Mirzaalimov Nishanmurod Muxtarovich – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi

Parmanov Abdumalik Pattoyevich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh mutaxassisi

Pozilov Odil Samadovich – O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlari harbiy qism qorovul boshlig'i

Rejepov Bekpolat Mamitovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Soatov Fazliddin Sunnatillayevich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Sultonov Oybek Sultonboyevich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi kadrlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari

Tilabov Bahodir Samandarovich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bo'lim bosh serjant yordamchisi

O'sarov Obidjon Komiljon o'g'li (marhum) – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh mutaxassisi

Xudjaqulov Dilmurot Panjiyevich – Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari – ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'i

Xo'jamqulov Abdivaxid Musayevich – Surxondaryo viloyati Bojxona boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Shafiyev Renat Rustamovich – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi markaz boshlig'i

“SOG'LOM TURMUSH” MEDALI BILAN

Karimova Saida Mo'xtar qizi – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism bo'lim katta ofitseri

Xolbekov Xaytbek Oybek o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi boshqarmasi bo'lim inspektor-psixologi

“SHUHRAT” MEDALI BILAN

Artikov Sherzod Baxtiyarovich – Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani prokurorining o'rinbosari

Jumayev Sharof Norchayevich – O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi surishtiruvchisi

Zaripov Maratjon Rizayevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism guruh komandiri

Qambarov Botirjon Shermaxammadovich – Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani ichki ishlar bo'limi profilaktika katta inspektori

Maxkambayev Abdulla Abdisamatovich – Toshkent viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi texnik ta'mirlash qismi boshlig'i

Po'latova Azizaxon Murot qizi – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qism guruh katta ofitseri

Saidov Sardor Saydullayevich – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qism seksiya komandiri

Sanayev Begzot Yusubovich – Sirdaryo viloyati Shirin shahri ichki ishlar bo'limi boshlig'i

Sultanova Jamila Masharipovna – Xorazm viloyati ma'muriy sudining raisi

Toshpulatov Sulton Eshniyozovich – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash boshqarmasi qo'riqlash bo'limi haydovchisi

Usmonov Shuxriddin Xoliqovich – Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Qarshi shahri favqulodda vaziyatlar bo'limi katta usta-qutqaruvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Sh. MIRZIYOYEV

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

YANGI O‘ZBEKISTON ARMIYASI

– MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!

Dunyoda Vatanni himoya qilishdek sharaflı vazifa bo‘lmasa kerak. Mana shu buyuk mas’uliyatni zimmasiga yuklaganlar jonajon yurtini, qadrdon go‘shasini eng muqaddas dargoh sifatida e‘zozlaydi. Uning har qarich tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo aylab, tinchligi va osoyishtaligini saqlash uchun o‘z oromi va halovatidan, kerak bo‘lsa, aziz jonidan kechadi. Shunday insonlarni biz qahramonlar deya e‘tirof etamiz. Zotan, ularning yurt uchun qilgan har bir ishi, har qadami jasoratga, qahramonlikka teng. Ular tinchligimiz qalqonlari, farovon turmushimiz himoyachilari. Shuning uchun ham yurtimizda har yili 14-yanvar sanasi xalqimizning mard va jasur farzandlariga bo‘lgan ehtiromi ramzi sifatida katta tantana qilinadi.



Bu yil muborak bayramning shukuhi yanada ulug‘vorlik kasb etdi. Bayram taraddudi, tayyorgarligida o‘zgacha ruh, yuksak ko‘tarinkilikni his qildik. Mamlakat bo‘ylab “Yangi O‘zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!” degan ustuvor g‘oyani o‘zida mujassam etgan “Vatanparvarlik oyligi” doirasida o‘tkazilgan turli ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, festivallar... Jangovar sadolar ostida marsh yurayotgan harbiy xizmatchilar, ko‘kda mag‘rur hilpirayotgan O‘zbekiston bayrog‘i... Ko‘zlarda jilvalangan havas, ishtiyoq, zavq, hayrat... bu manzarani chetdan kuzatish juda yoqimli. Mana shunday farahbaxsh onlarda inson Vatan tuyg‘usini, tinch va osuda osmon, osoyishta kunlar qadrini chin dildan his qiladi. Shuning uchun ham bu tadbirlar Vatanimizda istiqomat qilayotgan yosh-u qari uchun esda qolarli va taassurotlarga boy bo‘ldi.





Poytaxtimizdagi muhtasham "Xalqlar do'stligi" san'at saroyida o'tkazilgan tantana, shubhasiz, bayram shodiyonalarining kulminatsiyasi bo'ldi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, DXX raisi, kuch tuzilmalari rahbarlari, harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar faxriylari, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, chet el harbiy attashelari va keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Tadbir avvalida mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 33 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigini o'qib eshittirdi.

Shundan so'ng davlatimiz madhiyasi yangradi. Dastlab Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga "Amir Temur jangovar bayrog'i" tantanali ravishda topshirildi. Uni okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov qabul qilib oldi.

Konsertni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Uchqun Tillayev ijrosidagi "Amir Temur marshi" ochib berdi. Mardlikni, jasorat-u fidoyilik va qahramonlikni ulug'lovchi mazkur marsh kuch tuzilmalarining Markaziy ashula va raqs ansambli xonandalari va havaskorlik jamoalari ijrosidagi ona Vatanni va milliy armiyamiz kuch-qudratini madh etuvchi turkum kuy-qo'shiqlarga ulanib ketdi.

Ha, dunyoda yoqimli qo'shiqdan zavqlanmaydigan, uni sevib



tinglamaydigan inson yo'q. Chunki kuyda ulug' hikmat, qo'shiqda hayot otlig' qudrat va chek-chegarasiz mehr-muhabbat yashirin. Shuning uchun ham musiqaning ta'sir kuchi, uning harbiy-vatanparvarlik targ'ibotidagi ahamiyati hech qachon qimmatini yo'qotmaydi. Zero mardlik, jasurlik va fidoyilikni tarannum etuvchi kuy-qo'shiqlar Vatan himoyachilari uchun cheksiz kuch-g'ayrat va shijoat manbai sanaladi.

- Bayram tantanasi qiziqarli bo'ldi. Maroq bilan hordiq chiqardik, - deydi polkovnik Alisher Shirinov. - Konsert dasturini tomosha qilib, Yangi O'zbekistonimizning milliy armiyasi, uning kuch-qudrati, jangovar salohiyati ko'z oldimda gavdalandi. O'sha lahzalarda qalbmida kechgan tuyg'uni so'z bilan ta'riflab berolmayman. Juda yoqimli his edi bu. Men shunday qudratli armiya saflarida xizmat qilayotganimdan, yurt himoyachisi degan sharafli nomga sazovor ekanimdan faxrlanaman va Vatanimga, xalqimga, Prezidentimga sadoqat bilan xizmat qilishdan aslo tolmayman!



Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA

Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!

BIR YILDA OSHILGAN DOVONLAR



Qisqa davr ichida mamlakatimiz rivoji yo'lida tashlangan dadil qadamlar samarasi nafaqat yurtimizda, balki jahonda ham aks-sado berdi. Ayniqsa, o'tgan yil Qurolli Kuchlarimiz hayotida unutilmas va muhim voqealarga boy bo'ldi.

Davlatimiz rahbari xalqimizga yo'llagan Yangi yil tabrigida alohida qayd etganlaridek, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgani, hech shubhasiz, diyorimizdagi barqarorlik, do'stlik va hamjihatlik natijasidir.

Ayni damlarda yurtimiz bo'ylab O'zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bayrami keng qamrovda nishonlanmoqda. Iftixor bilan ayta olamizki, bu xursandchilik va xush kayfiyat ortida minglab o'g'lonlarimizning mashaqqatli xizmati va fidoyiligi yotadi.

Keling, o'tgan yilning to'rt faslida bo'lib o'tgan yorqin voqealarning qisqacha xronologiyasi bilan tanishsak.

BIR OLAM SABOQ

Yil davomida Markaziy harbiy okrug "Forish" tog' poligonida o'tkazilgan batalyon taktik o'quvi misolida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar shaylikning qay darajada ekanini kuzatish imkoniyatiga ega

bo'ldik. Ozarbayjon harbiylarining "Chimyon"da malaka oshirishi, "Angren" umumqo'shin tog' poligonidagi o'quv mashg'ulotlari, Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli "Nukus" umumqo'shin poligonidagi jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari, Hindiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Quruqlikdagi qo'shinlari shtab boshlig'i general Manoj Pande rahbarligidagi delegatsiyaning O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga tashrifi hamda O'zbekiston – Hindiston: "Do'stlik – 2024" o'quvlari yurt o'g'lonlarimizning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qildi.

Shuningdek, "Forish" tog'-o'quv poligonida kichik komandirlar, ya'ni yo'riqchi-serjantlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy yig'in, "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasida bo'lib o'tgan mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali, "Sazagan"dagi "Vatan tayanchi yulduzlari" harbiy sport musobaqalari tom ma'noda milliy armiyamizning jangovar va innovatsion salohiyatini namoyon etdi.



Turkiya Respublikasida o'tkazilgan 11 davlatdan 36 ta jamoa ishtirok etgan "Eng ilg'or mergan" xalqaro musobaqasida yurtimiz harbiylarining munosib ishtiroki, Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarining Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan "Birlestik – 2024" mintaqaviy xalqaro o'quvlarida ishtiroki yurt o'g'lonlarimizning xalqaro salohiyatini namoyon qilgan bo'lsa, Markaziy harbiy okrug "Forish" tog' poligonida 250 dan ortiq o'g'lonlar "Dovyurak jangchi" sharaflari nomiga ega bo'ldi.

Bundan tashqari, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchi ayollar o'rtasida "To'maris" ko'rik-tanlovi, "Forish" tog' poligonida O'zbekiston – Qozog'iston Respublikalari Mudofaa vazirliklarining harbiy xizmatchilari ishtirokida qo'shma harbiy mashg'ulotlar ham keng qamrovliligi va yangicha yondashuvlarga boyligi bilan yodda qoldi. Ayniqsa, "Amir Temur jangovar bayrog'i uchun" kechgan bahslar barcha harbiy okrug qo'shinlarini bir bayroq ostiga jamlagani katta voqelik sifatida e'tirof etildi.

ZABT ETILGAN MARRALAR

CHINDAN HAM O'TGAN YIL MILLIY ARMIYAMIZ UCHUN OMADLI VA ULKAN YUTUQLARGA BOY BO'LDI. Askarni tom ma'noda toblaydigan akademiya – Mudofaa vazirligi tasarrufidagi yigirmadan ortiq poligon xalqaro talablarga mos ravishda jihozlandi, bo'linmalar amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy jangovar harakatlarni faol qo'llay oldi, yangi taktik usul va uslublar yuksak mahorat bilan amaliyotga joriy qilindi.

2024-yil davomida Mudofaa vazirligi mutaxassislari turli xalqaro harbiy musobaqalarda faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladi. Xususan, Pokistonda VII Xalqaro "Jamoar ruhi" musobaqasida 1-o'rin; Rossiyada "Sayan yurishi" musobaqasida 3-o'rin; Turkiyada "Eng ilg'or mergan" musobaqasida 1-o'rin; Harbiy-kasbiy tayyorgarlik xalqaro olimpiadasida 1-o'rin; Koreyada "Xalqaro ilmiy jangovar tayyorgarlik" musobaqasida 1-o'rin; Koreyada II xalqaro merganlar musobaqasida 2-o'rin; Buyuk Britaniyada "Kembriya patruli" musobaqasida 2-o'rin; MDHga a'zo davlatlar armiyalari o'rtasida "O'q otish

sporti" musobaqasida 1-o'rin; MDHga a'zo davlatlar armiyalari o'rtasida "Harbiy sport kompleksi ko'pkurashi" musobaqasida 2-o'rin qo'lga kiritildi.

Shuningdek, Mudofaa vazirligi qo'shinlarining 22 nafar harbiy sportchisi dunyoning eng nufuzli musobaqasi hisoblangan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida mamlakatimiz sport terma jamoalari tarkibida 9 ta sport turi bo'yicha ishtirok etdi. Olimpiya o'yinlari yakuniga ko'ra, harbiy xizmatchilarimiz tomonidan 2 ta oltin, 1 ta kumush medal naqd qilindi. Paralimpiya o'yinlarida ham harbiy xizmatchilarimiz 1 ta oltin va 1 ta kumush medalga ega chiqdi.

O'ZBEK ARMIYASI JAHON E'TIROFIDA

Muhtaram Prezidentimizning e'tibor va tashabbuslari bilan qisqa vaqt ichida milliy armiyamiz zamon talablariga mos ravishda isloh qilindi, yangi namunadagi qurol-aslaha va harbiy texnikalar bilan qayta ta'minlandi. Boshqaruv organlari va qo'shinlarning operativ va jangovar tayyorgarligi darajasi ikki barobarga oshdi. Qurolli Kuchlar va qo'shin

turlari o'rtasida hamkorlik mustahkamlandi, harbiy shaharchalar va poligonlarning infratuzilmasi zamonaviy va milliy uslubda bo'y ko'rsatdi.

Bu jumalalar aytishga oson bo'lsa-da, uning ortidagi mashaqqat va mehnat, betinim izlanishlar samarasini hamma ham his qilavermaydi. Milliy armiyamizning jangovar shayligi va salohiyati oshib borayotganini AQShdagi "U.S. News & World Report" yangiliklar jurnalining 2024-yil uchun nashr etilgan reytingi ham tasdiqlaydi. Unga ko'ra, O'zbekiston armiyasi jahonning top yigirmataligiga qo'shilib, o'n to'qqizinchi, Markaziy Osiyo mintaqasida esa yetakchi o'rinni egallab turibdi.

Kelgusida alohida yo'nalishlarda qo'shinlarimiz jangovar tarkibini mustahkamlash, turli idoraviy bo'ysunuvdagi tuzilmalar o'rtasidagi hamkorlikni va ular bilan birgalikdagi jangovar tayyorgarlik samaradorligini oshirish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida qo'shinlarga eng zamonaviy jangovar amaliyotni joriy etish va boshqa ko'plab yo'nalishlardagi ishlarimiz davom etajak.

**"Vatanparvar"
birlashgan tahririyati**



Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga



XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayotida nihoyatda kuchli jonlanish ro'y berdi. Bu jonlanish o'lkada tobora miqyos kasb eta borgan Milliy uyg'onish kayfiyati va uning amaliy ko'rinishi bo'lgan jadidchilik hodisasi bilan belgilanadi. Jadidchilik harakati tarixan qisqa muddatda ijtimoiy ongini ma'rifatchilikdan siyosiy ozodlik, mustaqil davlatchilik g'oyasi tomon rivojlantira oldi. Bu harakat bir necha yo'nalishdagi amaliy faoliyatda o'z ifodasini topdi. Xususan, maktab-maorif, matbuot va matbaachilik, xayriya ishlari, adabiyot va san'at, shu jumladan teatr va dramaturgiya kabilarda.

Teatr jadid ziyolilari ta'biricha, "ibratxona", "ulug'lar maktabi" edi. Muqallid – aktyorlar esa "tabibi hoziq" misolida edilar. Mazkur tushuncha jadid teatrining ham g'oyaviy, ham estetik tamoyillarini belgiladi. Ayni chog'da teatr ma'naviy tarbiya maskani bo'lishi bilan bir qatorda maktab-maorif sohalarini moddiy quvvatlab turuvchi asosiy manbalardan ham edi. Ana shu bois taraqqiyparvarlar milliy teatr ishlarini zo'r berib rivojlantirishga intildi. 10-yillarning o'rtalariga kelib, Turkistonning deyarli barcha yirik shaharlarida havaskorlar milliy truppalari tashkil topa boshladi. Avval Toshkent, Samarqand, so'ngroq Qo'qon, Namangan, Andijon, Buxoro, Xo'jand, Kattaqo'rg'on shaharlarida teatr jamoalarining vujudga kelishi milliy dramaturgiyaga bo'lgan ehtiyojni ham favqulodda kuchaytirib yubordi va shuning hosilasi o'laroq o'nlab sahna asarlari paydo bo'ldi. Bu ishlarning tamal toshini qo'yan zot esa Mahmudxo'ja Behbudiy edi.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY haqida so'z aytish, avvalo, turkiy

materiallar kitobida "Mahramlar" pyesasining Shahidiy tomonidan tatar tilida yozilgan "O'liklar" pyesasining o'zbekcha tarjimasidir, deydi.

Demak, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" asari xronologik tartibda ham, milliy, lisoniy jihatlariga ko'ra ham birinchi o'zbek sahna asaridir.

Turkistondagi jadidchilik harakatini yaqin-yaqingacha ma'rifatparvarlik deya cheklash mavjud edi. Yevropa va qator Sharq mamlakatlaridagi kabi bizda ham ma'rifatparvarlik antifeodal hodisa albatta. Ayni paytda Yevropadan farqli o'laroq bizdagi ma'rifatchilik antikolonial mohiyat ham kasb etgani ma'lumki, shu xususiyatning o'zi Turkiston va balki, butun Rossiya musulmon o'lkalaridagi jadidchilikning ulkan ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lganini anglatib turibdi. Ana shu ikki mafkuraviy asos, ya'ni feodal qoloqlik va kolonial istibdodga qarshi kurash jadidchilikning barcha ko'rinishlari va intilishlarida namoyon bo'lgan. Turkiston jahidlari rahnamolaridan Munavvarqori Abdurashidxonov o'zi va maslakdoshlarining boshi

BEHBUDIY VA TEATR

dunyoning eng yorqin, buyuk siymolaridan biri xususida mushohada qilish bo'lsa, ikkinchidan, o'zbek millatining ijtimoiy ongini belgilagan qator sohalarining "otasi" – boshlovchisi haqida, chunonchi ta'kidlaganimiz, milliy dramaturgiya va teatr sohalarining ham asoschisi haqida fikr yuritish demakdir.

Ayrim mutaxassislar xronologik tartibga ko'ra, birinchi o'zbek dramasi deb O'zbekistonda turib qolgan tatar ziyolisi Abdurauf Samadov – Shahidiyning "Mahramlar" pyesasini tilga oladi. Asarning 1911-yilda yozilib, Namanganda "Is'hoqiya" matbaasida shu yili chop etilganini dalil qilib ko'rsatdilar. Afsuski, "Mahramlar" pyesasining chop etilgan nusxasi O'zbekiston kutubxona va arxivlarida hozircha topilmagani sabab asarning nashr etilgan yili noto'g'ri ko'rsatib kelingan. Sankt-Peterburgdagi ommaviy kutubxonaning milliy adabiyotlar bo'limida pyesaning "Is'hoqiya" matbaasida chiqqan nashri saqlanadi. Unda asarning nashr sanasi 1912-yil deb aniq ko'rsatib qo'yilgan. Pyesaning yozilish sanasiga doir aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq Behbudiyning "Padarkush" pyesasi 1911-yilda yozilgani muallif tomonidan ham, zamondoshlari va boshqa olimlar – Behbudiy biograflari tomonidan ham e'tirof etilgan.

Qolaversa, o'zbek teatri tarixini birinchilardan bo'lib ancha keng tadqiq etgan Miyon Buzruk Solihov 1935-yilda Toshkentda nashr etilgan "O'zbek teatri tarixi uchun

kundaga to'g'rilanayotgan 1927-yilda mardonavor turib: "Nainki, biz jadid maktabi ochish bilan savdo xizmatchilari, boshqacha ta'bir bilan aytganda, do'konda o'lturub nasiya yozadurg'on xodimlar yetkazsak? Shu ishka aqli odam shu bahoni berishdan (avval) u yoq bu yoqni mulohaza qilsin. Jadid maktabi ochishimizga siyosiy va madaniy kurashchilar tayyorlash bahosi berilmaganiga taassuf bildirolmay o'ta olmayman", deb aytgan edi. Nafaqat maktab, ayni chog'da matbuot, turli jamiyatlar, san'at, adabiyot barchasi ana shu ijtimoiy-siyosiy maslak yo'lida siyosiy va madaniy "kurashchilar" tayyorlashga yo'naltirildi. Ham iqtisodiy, maishiy turmushdagi qoloqlikni bartaraf etish, ham chor asoratini yo'qotish jadidchilikning hamma harakatlarida aks etdi, shu jumladan teatr va dramaturgiyada ham.

Behbudiy 1909-yildayoq "Ehtiyoji millat" maqolasida yozadi: "Biz Turkistonlilarg'a ikki sinf kishilari lozimdurki va bu ikki sinf kishilarisiz bizni diniy va dunyoviy ilmlarimiz millat va qavmiyatimiz, maishiy ehtiyojlarimiz xarob bo'lib, kundan kun begona millatlarning zabuni va mahkumi bo'lurmiz... ya'ni bu ikki sinf zamondan boxabar ulamoji diniya va dindan boxabar ulamoji zamoniya". Aynan shu qarash "Padarkush" pyesasining g'oyaviy negizini belgilagan.

ASAR MAZMUNIGA KO'RA, bir boy odam o'zi savodsiz bo'lgani holda farzandini ham ilmli qilmoqchi

emas. O'g'li o'spirin yoshiga yetsa-da, maktab ko'rmagan. Ota bundan mutlaqo tashvishlanmaydi. Chunki o'ziga otameros mulk qolib, boylukda bahuzur yashayotganidek, o'g'li ham shu taqdirni takrorlaydi, degan o'yda. Asar muallifi boy fikrini o'zgartirish uchun o'z davri ma'rifatining ikki vakili – eski maktab “domla”si va “usuli jadid” targ'ibotchisi – ziyolini uning huzurida ko'rsatadi. Avval Domla, so'ng Ziyoli kelib, boyning o'g'li Toshmurodni maktabga berib, ilmiy-diniy va ilmi zamondan bahramand etishga da'vat qiladi. Bu so'zlariga beparvo, bepisand boy har ikki mehmondan ham ranjib, ularni bir amallab haydash chorasini izlaydi. Otaning bema'ni hayot tarzini ko'rib o'sgan farzand uch-to'rt bezori, chapani yigitlarga qo'shilib ichkilik ichadi, maishiy buzuvchilikka mayl bildiradi va oxir-oqibat ana shu ehtiyojlari uchun mablag' istagida otasining kushandasiga aylanadi.

Voqeaning fojiaiy yakunidan so'ng sahnaga kirib kelgan Domla va Ziyoli o'z so'zlariga quloq osmagan boyning mash'um ibratida ilmsizlik, jaholatning dahshatini, fojiasini ta'kidlab, xalqqa murojaat etadi: *“Ilm va tarbiyasiz bolalarning oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmasdi, xun beg'ayri haqqin qilmas edi... Oh, haqiqatda boyni o'ldurgan va yigitlarni azobi abadiyg'a giriftor qilgan beilmlikdur... Bu ishlarni yo'q bo'lmog'iga o'qumoq va o'qutmakdan boshqa iloj yo'qdur”.*

“Padarkush” pyesasida ilgari surilgan g'oya ana shu so'zlarda aks etadi. Shunga ko'ra, ko'pgina mutaxassislarimiz uni sof ma'rifiy xarakterdagi asar sifatida baholab keladi. Darhaqiqat, ilmsizlik, jaholatga qarshi ma'rifat g'oyasi har bir sahifada yaqqol ifodalangan. Ayni chog'da jadidchilikning o'zak masalasi bo'lgan istibdodga qarshi antikolonial g'oya ham asarning bir necha o'rinlarida goh ochiqroq, goh pardali va yoki matn tagzaminidan anglashilib turadi. Anglashilgan sari esa avvalo shu g'oya nazarda tutilgan emasmikan, degan fikr sobitlashib boradi. Bir qadar oshkora ko'ringan istibdod masalasi juz'iyroq shaklda domlaning quyidagi so'zlarida seziladi:

“Ko'rarmizki, yigirma-o'ttiz yildan beri barcha savdo ishlari armani, yahudiy va boshqa ajnabiylar qo'lig'a o'tdi”.

Agar domla shu so'zlarni aytib, o'qimoqqa, xususan musulmonlik, din, islomiyat ravnaqiga da'vat etsa, undan so'ng kirgan ziyolining tilida “millat” so'zi qayta-qayta takrorlanadi. U “millatga keraklik ilmlar to'g'risida” so'ylarkan, mavjud asorat tuzumi bilan bog'liq quyidagi fikrni bayon etadi: *“Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamong'a ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundun kun qo'lidan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur”.* Ziyolining bunday hur fikrlari asar so'ngida rivojlantiriladi va yanada ochiqroq matnda beriladi: *“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir-u zarurat xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi natijasidir. Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq, ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlarda beilmlikdan”.*

“Padarkush” pyesasining antikolonial mohiyatini muallif tomonidan g'oyat noziklik bilan

singdirilgan yana bir necha o'rinlarda kuzatish mumkin.

Avvalo, asarning 1913-yili Samarqandda ilk bor nashr etilgan nusxasi titul sahifasidagi bag'ishlov e'tiborni tortadi. Unda muallif o'z asarining 1812-yil “Borodino maydonidagi jang va bu jangda Rossiyaning fransuzlar bosqinidan halok bo'lgani” sanasiga bag'ishlanganini qayd etgan. Senzura tazyiqidan bezor bo'lib bag'ishlov bitgan Behbudiy shunda ham o'z maqsadini dabdurustdan kishi sezmaydigan bir tarzda ifodalab ketadi. Ya'ni “Padarkush” Rossiyaning istibdod xavfidan qutulgani sharafiga asoratdagi “Turkiston maishatidan olingan” asar ekanini mantiqan ta'kidlaydi. Vaholanki, shu paytda yozilgan aksariyat asarlarda bag'ishlov odatda asosan oq podsho va uning avlod-ajdodlari, rafiqasi sharafiga bo'lar edi. Behbudiy bu an'anani ongli ravishda buzadi va fikrni boshqa siyosiy maqsadga yo'naltirish yo'lini topadi.

“PADARKUSH”DA asorat tufayli fojialar yuz berayotganiga yana bir jiddiy ishora bu asardagi “pivoxona manzarasi”dan anglashiladi. Uch-to'rt kuchga to'lgan, navqiron yerli yigitlar

hatto (mahalliy xalqning) ilmi kishilari, din arboblari ham tegishli...”

Rossiya sharqshunosining bu qaydlari butun Turkiston turmushi uchun tipik hodisaga aylanib borayotgan manzarani jonlantiradi. Behbudiy zamonasining eng ziyarak, zakiy bir millatparvar allomasi sifatida vatandoshlarining ruslardan o'zlashtirayotgan va istibdod siyosati ongli ravishda izchil joriy etayotgan tuban illatlarni juda yaxshi anglar edi. Shu bois “Padarkush”lik fojiasining katta bir sababini g'ayrimillatlardan kirib kelayotgan ichkilikda ham ko'radi.

PYESADAGI shu masalaga yondosh holda tilga olingan yana bir xunuk, tuban hodisa fohishabozlik illatidir. Bartold ko'zda tutgan yengil-yelpi turmush tarzi, darhaqiqat, mahalliy aholi ma'naviyatini puturidan ketkazmoqda edi. Behbudiy pyesada fojiaga sabab hodisalar sifatida armani Artun ochgan pivoxona qatorida suyug'oyoq ayol Liza obrazini ham ko'rsatadi. Garchi bu personaj asarning so'nggi sahifalarida ikki-uch og'iz

“

Teatr jadid ziyolilari ta'biricha, “ibratxona”, “ulug'lar maktabi” edi. Muqallid – aktyorlar esa “tabibi hoziq” misolida edilar. Mazkur tushuncha jadid teatrining ham g'oyaviy, ham estetik tamoyillarini belgiladi.

”

o'spirin Toshmurod boyvachchani yonlariga olib, ichkilik ichib, mast holatda o'tirganlarini ko'rsatar ekan, Behbudiy Rossiya maishiy hayotidan Turkistonga kirib ildiz otgan ichkilik, pivoxonalarda musulmon yoshlari uchun zunuk ommaviy hodisaga, ofatga aylanganini ta'kidlamog'chi bo'ladi. Bu fikr Behbudiyninggina fikri emas. Buni hatto Rossiya manfaati uchun xizmat qilgan rus olimlarining o'zlari ham qayd etgan edi. Akademik V. Bartold “История культурной жизни Туркестана” nomli fundamental tadqiqotida yozadi: **“1878-yilda akademik Middendorf yaqindagina zabt etilgan (Farg'ona) viloyatining favqulodda sokin, tinch ekaniga hayratlangan edi. 1901-yildayoq Farg'onada xalqning axloq-odobi shunchalar yaxshi ekanki, 1,5 milliondan oshiqroq aholi orasida jami 27 ta qarochilik va 26 ta o'g'rilik qayd etilgan. 1910-yilda esa Farg'onada jinoyat darajasi butun Rossiya imperiyasidagidan ikki barobar ortiqroq ekani qayd qilindi... Jinoyat ko'rsatkichlarining bu qadar ko'payishiga bosh sabab qilib mahalliy xalq orasida alkogolizmning yoyilishi deb hisoblamoqdalar. Bartold chor jandarmeriyasi dalillarini keltirar ekan, ichkilikbozlikning tarqalishiga maxsus to'xtaladi: “Mahalliy xalq, – deb yozadi Bartold, – ruslar bilan yaqinlashib va ruscha so'zlashishni o'rganib, ularning zohiriy hayoti, aksariyat salbiy hayot tarzini, yengil-yelpi turmush kechirish, vino va pivo ichish kabilarni o'zlashtirdi. Bu**

jumla bilan ishtirok etsa-da, sodda va go'l yerli yigitlarning xayolini buzg'un qiliqlari bilan butkul egallagan va o'z shartlari, talablari bilan bo'z bolalarni sirdan jinoyatga undagan asosiy sababkorlardan edi. Voqelikda haqiqatan Liza kabi ayollar sovuq o'lkalardan to'da-to'da bo'lib kelib, mahalliy xalq turmushini bezayotgan, uni ma'naviy tubanlikka tortayotgan edi. “Oyina” jurnalining 1913-yil 5-sonida “Samarqand xabarlari” rukni bilan Samarqand shahri vokzali yaqinidagi fohishaxona ziyolilar va ulamolar talabi ila yopilgani ijobiy voqea sifatida ma'lum qilinadi. Xabardan anglashilishicha, bu yerga 200–300 tacha rus va tatar qizlari muntazam “gastrol”ga kelib yurar ekan. Ana shunga o'xshash dalillar ham ko'rsatadiki, Behbudiy Turkiston hayotidagi real mavjud hodisalarni qalamga oladi. Va balki, hali voqe bo'lmagan “Padarkush”lik fojialari avj olishi mumkinligidan ogohlantirmog'chi bo'ladi. Uning ildizlari mohiyatini avvalo istibdodda va xalqni qullikka mahkum etgan jaholat ham ma'rifatsizlikda deb biladi.

Keyinroq “Oyina” sahifalarida e'lon qilingan bir maqolasida Behbudiy yozgan edi: “Qabilasining ismini va yetti otasining otini bilmaydurganlarni “qul” – “marquq” derlar”. G'ayrimillatlardan o'zlashib, voqelikda joriy bo'layotgan tuban illatlar –

ichkilik, fahsh xalqni o'z axloqiy qadriyatlaridan, an'analaridan ajratayotgan, uzib tashlayotgan edi. Demakki, o'zini tanimaslik, o'zligini anglamaslik sari boshlamoqda, “marquq” – manqurtlikka mahkum etmoqda edi. Manqurt esa otasini ham, onasini ham o'ldirishdan toymaydigan dahshatli bir maxluq. Binobarin, shu zaylda “Padarkush”lik oddiy voqeaga aylanib qolishi hech gap emas edi.

“Padarkush” aksari ma'rifat chorasi bilan asoratdan, qullikdan qutulish g'oyasini tashigani uchun ham u madaniy-adabiy doiradan chiqib, siyosiy hodisaga aylanib ketdi. Shu asar bois Turkistonning barcha yirik shaharlarida teatr jamoalari vujudga keldi.

Shuhrat RIZAYEV,
“O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi”, filologiya fanlari nomzodi, professor

Millatparvarlar



JAVOHARLA'L NERU QIDIRGAN O'ZBEK JADIDI

1955-yil 15-iyun kuni SSSRga rasmiy tashrif bilan kelgan Hindistonning birinchi Bosh vaziri Javoharla'l Neru Toshkentga keladi. Nufuzli mehmon sharafiga O'zbekiston Fanlar akademiyasi majlislar zalida tantanali yig'ilish tashkil etildi. Tadbir yakuniga yetgach, tarjimon SSSR tashqi ishlar vaziri o'rinbosari V. Kuznetsovga "Janob Bosh vazir hurmatli professor Bulat Soliyev janoblari bilan uchrashmoqchi" deydi. O'sha paytdagi O'zbekiston SSSR tashqi ishlar vaziri G'ani Sultonov u kishini tanimasligini aytib, vaziyatdan chiqmoqchi bo'ladi. Hamma "yalt" etib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Tesha Zohidovga qaraydi. Fanlar akademiyasi olimlari Hadicha Sulaymonova va Sabohat Azimjonova labini tishlaganicha yerga qarab turishardi. Ozigina sukutdan so'ng Tesha Zohidov o'zini qo'lga olib, "Janob bosh vazir, professor Po'lat Soliyev ancha yillar avval yo'lda vafot etgan. Qabri qayerdaligi noma'lum" dedi.

O'sha paytda o'zbekistonliklarni noqulay vaziyatga solib qo'ygan va nomi tilga olinishi mumkin bo'lmagan, 1938-yil 28-fevralda "xalq dushmani" sifatida otib tashlangan bu kishi birinchi o'zbek tarixshunos professori Bulat (Po'lat) Soliyev edi.

Bulat Soliyev O'zbekiston ilmiy fanining taniqli arbobi, Vatanimiz va umuman, O'rta Osiyoda yangi tarixshunoslik ilmiy maktabining asoschilaridan biridir. U kishi 1882-yil 22-martda Astraxan shahrida, mang'it urug'iga mansub o'zbek oilasida tug'ilgan, shu bois rasmiy va ilmiy hujjatlarda Bulat, Bekbulat, keyinchalik Po'lat ismlarini olgan. Qozon va Ufada madrasa ta'limini ko'rgan, arab, fors, turk, rus, fransuz va nemis tillarini puxta o'rgangan, 1909-yilda Turkistonga kelgan Bulat Soliyev jadid sifatida Turkistonning

ko'pgina shahar va viloyatlarida, jumladan Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysi, Jalolobod viloyatida o'zining ma'rifiy faoliyatini olib borgan. Toshkent va Qo'qondagi maktablarda tarix, arifmetika, ona tilidan dars beradi.

1917-yilda Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishida jonbozlik ko'rsatadi va muxtoriyatning asosiy nashri bo'lgan "El bayrog'i" gazetasining bosh muharriri bo'ladi. 1918-yili muxtoriyat tor-mor qilingach, o'zini ilmiy-pedagogik faoliyatga bag'ishlaydi. 1918-yilning noyabr oyida Bulat Soliyev Nazir To'raqulov bilan birgalikda Qo'qon xalq universitetini tashkil etishda ishtirok etadi. Mazkur o'quv dargohi asosan Farg'ona vodiysidagi qishloq o'qituvchilarining malakasini oshirish bilan shug'ullanadi va Bulat Soliyev uning direktori etib saylanadi. Ushbu

ta'lim dargohi keyinchalik Farg'ona vodiysidagi pedagogika institutlarining tashkil etilishida tamal toshini qo'ygan dargohlardan biri bo'ladi.

SSSRning butun 70 yillik umri davomida tarix fan sifatida mafkuraviy aralashuv obyekti bo'lgan. Dastlab 1920-yillarning oxirigacha inqilobdan oldingi tarixchilik maktabi vakillari nisbatan erkin faoliyat yuritishlari, o'z asarlarini o'quv yurtlarida o'qitishlari va nashr etishlari mumkin edi. Bunday yengillikning paydo bo'lishiga 1920-1928-yillarda amalga oshirilgan yangi iqtisodiy siyosat ham bir qadar imkon berdi.

1920-yilda Bulat Soliyev o'zining bir qancha asarlari bilan allaqachon mahalliy ziyolilar orasida yetuk tarixchi sifatida namoyon bo'lgan edi.

Bu yillarda olim bir qator juda qimmatli asarlarni yozadi. Jumladan: "Mang'itlar saltanati davrida Hindiston Angliya zulmi ostida" (1920-yil), "Buxoro o'lkasi" (1926-yil), "Buxoro tarixi" I qism, (1925-yil), "O'rta Osiyoda savdo kapitali davri" (1926-yil), "O'rta Osiyo tarixi XI-XV asrlar" (1926-yil), "O'zbekiston tarixi" (1929-yil), "O'zbekiston va Tojikiston" (1926-yil), "O'rta Osiyoda islomning tarqalishi" 1928-yillarda nashr etildi. 1926-yilda Bulat Soliyevga professor unvoni beriladi.

Bulat Soliyevning yozish uslubi mutlaqo boshqacha edi. U asosan biror bir ilmiy muammoni ko'tarayotganda odatda, umuman boshqa narsa haqida yozayotgan bo'lardi. Masalan, olimning 1920-yilda nashr etgan "Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi" nomli asarida Bulat Soliyev tarixchi sifatida kapitalistik Angliyaning Hindistondagi kirdikorlarini ochib berishni xohlagan bo'lsa-da, olim shu o'rinda Lenin boshliq bolsheviklar hukumatining bosqinchilik siyosatini ham mohirlik bilan fosh qiladi. Masalan, olim ushbu asarda shunday deydi: "Hindistonga xavf bo'lg'onlig'i uchun Angliya davlati Tibetni o'ziga tobe qildi. O'z nazorati ostiga oldi. Tibet ixtiyorsiz sur'atda Angliyaga itoat etishga majbur bo'ldi. Ko'ngilga bir so'roq keladir: Angliyaning Tibetga hujum etishga qanday haqqi bor? Tibetda qanday ishi bor? Qanday asosga binoan Angliya davlati Tibetni o'ziga qo'shadi? Belgili bu ish haqqoniyasizlik, adolatsizlikdir". Ushbu savollarning barchasi aslida Turkistonni kuch bilan bosib olgan sovet dohiylariga qaratilgan edi.

Sovet davlati tashkil topgan 1920-yillardayoq Po'lat (Bulat) Soliyev Turkiston tarixiga oid darslik yozish ishiga jiddiy kirishadi. Biroq bolsheviklar Po'lat Soliyev va boshqa mahalliy olimlar tomonidan tayyorlangan tarix bo'yicha darslik loyihalarini doimiy ravishda rad etib keladi. Shunday bo'lsa-da, **Soliyev 1929-yilda "O'zbekiston tarixi" kitobini nashr ettirishga muvaffaq bo'ladi.**

Olim mazkur asarni yaratishda o'rta asr muarrixlarining meroslaridan unumli foydalanadi. Muallif tarix sohasidagi mafkuraviy ko'chkiga qarshi ekanini ta'kidlagan holda kitobning kirish qismiga, o'sha kunlarda sovet mafkurachilari tomonidan ayovsiz tahqirlangan Amir Temur suratini ilova qiladi.

"O'zbekiston tarixi" asari o'quvchiga Temur davrida Turkistonning jahon geosiyosatida qanday o'rin tutgani va Turkistonning buyuk o'tmishi haqida qimmatli ma'lumotlar berdi. Bundan sal avval, ya'ni 1927-yilda ham **Po'lat Soliyev "Maorif va o'qituvchi" jurnalida "O'zbeklar ham Temur bolalari" deb nomlangan maqolasi bilan katta shov-shuvga sabab bo'lgan edi.** Ushbu maqola chiqishi bilan sovet mafkurachilari o'sha davrdagi davriy nashrlarda birin-ketin Po'lat Soliyevning maqolasi haqida tanqidiy materiallar e'lon qila boshlaydi.

Albatta, xalqining o'zining haqiqiy tarixi bilan tanishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan tarixchi olim sovet maxsus xizmatlari tomonidan ta'qibga uchramay qolmaydi.

1933-yilning avgust oyida VKP(b) Samarqand bo'limi tomonidan olimning 1926-yilda nashr etilgan "O'rta Osiyo tarixi" asari g'oyaviy jihatdan "nobop" deb topiladi. Chunki asar davomida olim Xorazmshohlar davlatining nufuzi va O'rta Osiyoning XI asrda jahon ilm-u fani rivojiga qo'shgan hissasi haqidagi ma'lumotlari sovetlarga yoqmagani edi. 1936-yilda tarixchilar qurultoyida Bulat Soliyev asarlari "O'tmishni ideallashtirgan" va "Panturkistik" deya baholanib, oliy o'quv yurtlarida darslik sifatida qo'llash taqiqlab qo'yildi. Uning mintaqa tarixiga keng va chuqur yondashish haqidagi talabi tez orada kommunist tarq'ibotchilarning keskin tanqidiga sabab bo'ladi va ular Po'lat Soliyevning tarixshunosligini "millatchilik va panturkistik" ruhda deya ta'riflandi. 1937-yilda boshlangan "Katta terror" siyosati natijasida O'zbekistondagi bir qator taniqli davlat arboblari hamda adabiyot va san'at namoyandalari hibsga olinadi. Bulat Soliyev boshida qora bulutlar aylana boshlaydi. 1937-yil sentabrda professor Bulat (Po'lat) Soliyev Samarqanddagi O'zbekiston davlat universitetidan bo'shatildi.

1937-yil 11-oktabrda professor Soliyevni hibsga olish to'g'risida qaror chiqarildi. Unda, jumladan shunday deyiladi: "Toshkent shahri, 1937-yil 11-oktabr. Men O'zbekiston NKVD 3-bo'limi operativ xodimi - davlat xavfsizligi leytenanti Gaynitdinov panturkistik tashkilot a'zosi bo'lgan Po'lat Soliyevga tegishli hujjatlarni o'rganish jarayonida uning butunlay O'zbekistonda Sovet hokimiyatini ag'darishni maqsad qilgan antisovet panturkistik tashkilot a'zosi bo'lganini, mahalliy ziyolilar orasida muntazam ravishda sovetlarga qarshi tashviqot olib borganini aniqladim". O'zSSR Jinoyat kodeksining 49-moddaga 6 bandiga asoslanib, **QAROR QILINADI:**

"1882-yilda tavallud topgan, partiyasiz, Samarqand shahridagi O'zbek davlat universiteti professori, SSSR fuqarosi bo'lmish Po'lat Soliyev hibsga olinsin va O'zSSR Jinoyat majmuasining 60- va 67-moddalariga ko'ra javobgarlikka tortilsin".

Shu tariqa qariyb 5 oy davom etgan qiynoqlardan so'ng 1938-yil 8-fevralda NKVD uchlik sudi Bulat Majidovich Soliyevni otuvga hukm qiladi. Hukm 1938-yil 28-fevralda ijro qilinadi. Shu tariqa birinchi o'zbek tarixshunos professori, musulmon Sharq xalqlarining bilimdoni Stalin boshliq "qatag'on mashinasi" tomonidan mahv etildi.

Bulat Soliyevning asarlari nafaqat O'zbekistonda, balki ko'plab Sharq xalqlari orasida anchayin shuhrat qozongan edi. 1954-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan Hindiston Bosh vazirining ham bu kishini yo'qlagani bejiz emas edi. Olimning vafot etganini eshitgan hind siyosatchisi Bulat Soliyevning "Angliya zulmi ostida Hindiston o'lkasi" asari hind ozodlik harakati namoyandalari orasida mashhur bo'lganini, ularning ozodlik yo'lida kurashlariga ilhom berganini aytar ekan, Bulat Soliyevga minnatdorlik bildiradi.

O'zbekiston SSR Oliy Sudi komissiyasining 1956-yil 29-aprelda chiqargan 32/4 raqamli qaroriga ko'ra, Bulat (Po'lat) Soliyev haqidagi 1938-yilning 7-fevralidagi qaror uning jinoyati tasdiqlanmagani tufayli bekor qilindi - haq joyida qaror topdi. Hayot bir joyda turmaydi. Oradan shuncha yillar o'tdi. Olimning ayoli Fotima aya 1987-yilda vafot etdi. Bulat Soliyevdan 4 nafar farzand qoldi. Ular turli faoliyatlar bilan mashg'ul bo'ldi. Bulat Soliyevning nevarasi Alisher Muhiddinov bugungi kunda bobosining merosini saqlab kelmoqda.

**Ubaydulla QUVVATALIYEV,
Termiz davlat universiteti
tuzilmasidagi "Qatag'on qurbonlari
xotirasi" muzeyi direktori**

Qahramonlar nomi barhayot

Chunki harbiylikning yuki, mas'uliyati – harbiy xizmatchining ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillari uchun, oilasi, turmush o'rtog'i, farzandlari uchun og'ir. Mahallasi, do'stlari uchun og'ir. Barchamiz uchun birdek og'ir. Chunki ularning jasoratini kelajak avlodga munosib tarzda yetkazishimiz kerak emasmi? Yana nimalarnidir anglab yetdim. Ayniqsa, Sariosiyo va Uzun voqealari ishtirokchisi Bobomurod Nuratov tomonidan ijro etilgan "Do'stlarim", "Unutmayman sizni, elim qahramonlari!", "Maktublar" qo'shiqlaridagi oddiy haqiqatlar ham bu boradagi tushunchamni kengaytirdi. Chunki bu qo'shiqlarda yigirmadan ortiq navqiron yigitning yorqin xotirasi bor...

Har safar ular haqida yozishga jazm etganimda nimadir yetishmayotgandek bo'ladi. O'sha nimadir yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan o'g'lonlarning jasorati va mardligini barchaning ko'z o'ngida gavdalantira oladigan birgina jumla ekanini bilsam-da, o'sha jumlaning topa olmayotgandek bo'laveraman. Ular yurtim istiqbolining poydevorlari edi. Ular Vatanimning timsollari edi. Ular "Qaniydi, shu Vatanga jon bersam!" dedi. Bu mard yigitlar, Vatan uchun yaralgandi. Katta leytenant Kamoliddin Toshpo'latov ham ulardan biri edi.

Oradan 24 yildan ko'proq vaqt o'tdi. Bu vaqt oralig'ida jigarbandidan ayrilgan ota-onalarning, suyuqli yoridan judo bo'lgan mushtipar ayollarning, otasining siyratini faqatgina suratlarda ko'rgan farzandlarning qalb yaralari bitib ulgurganmikin, degan xavotir bilan Kamoliddinning o'ndan ortiq yaqinlari bilan telefon orqali bog'landim. Ular shunday insonning turmush o'rtog'i, farzandi, xizmatdosh va birga o'sgan do'stlari, mahalladoshi, tanigan-bilgani ekanidan faxrlanib gapirib berdi. Umr yo'ldoshi Gulnoz Nuriddinova, kenja o'g'li leytenant Mirkomil Kamoliddinov, xizmatdoshi Tolibjon Rajabov, birga o'sgan o'rtog'i Farhodjon Akbarovdan Kamoliddinning qahramonligi haqida hikoya qiluvchi o'nlab voqealar esga olindi. Ularning bari bitta kitobga jo bo'ladigan xotiralar.

1996-yilning iyun oyi. Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti (*hozirgi Qurolli Kuchlar akademiyasi*)ni imtiyozli diplom bilan tugatgan Kamoliddin Toshpo'latov va Gulnoz Nuriddinova yaxshi niyatlar bilan bir yostiqqa bosh qo'ydi. Bir oylik ta'til tugashi bilan ular Surxondaryoga xizmat burchini o'tash uchun jo'nab ketadi. To'ng'ich o'g'li shu yerda tug'iladi. 2000-yili Kamoliddin Toshpo'latov Chirchiqda xizmat vazifasini yangi lavozimda davom ettiradi. Yosh oila ikki yil ichida Namangandan Surxondaryoga,



“QANIYDI, SHU VATANGA JON BERSAM!”

Shu paytgacha harbiylikning yuki, mas'uliyati og'ir degan tushunchani qanchalik keng doirada bilishimni o'ylab ko'rmagan ekanman. Sariosiyo va Uzun voqealarida yurt tinchligi uchun dushmanga ko'ksini qalqon qilgan bahodirlar misolida bu boradagi qarashlarim ancha kengaydi.

keyin esa Chirchiqqa ko'chishga majbur bo'ldi. Gulnoz hali ikki yoshga ham to'lmagan Umidjon bilan umr yo'ldoshining yonida bo'lishni harbiylikning yuki, mas'uliyati deb bildi. Shu tarzda ularning hayoti bir maromda baxtli davom etardi.

Ammo avgust oyida ro'y bergan noxush voqealar mana shunday oilalar baxtiga raxna soldi. Sariosiyo va Uzun tumanida terrorchilar bilan mardonavor kurashgan Kamoliddin Toshpo'latov va uning bir necha safdoshi kindik qoni to'kilgan zamin himoyasi yo'lida qahramonlaracha halok bo'ldi. Mash'um xabar Gulnoz bilan bir qatorda minglab, millionlab qalblarni larzaga keltirdi. Jannatmakon yurtimizda to'ng'izdek

qo'pgan vatangado terrorchilar millionlab hamyurtlarimizning qarg'ishiga duchor bo'ldi. Mustaqilligimizni himoya qilgan navqiron yigitlar jasadlari shon-sharaf bilan dafn etildi. Ularning barchasi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Ko'chalarda, maktablarda va harbiy qismlarda yurt himoyachilarining byustlari qad ko'tardi. Vatangado terrorchilar jasadlari esa tog'-u toshlar orasida quzg'unlarga yem bo'ldi.

Ayol turmush o'rtog'ining vafotidan keyin yana Namanganga ko'chib keldi. Qayg'u bilan quvonch yonma-yon yuradi deganlaridek, oradan ko'p o'tmay, ikkinchi o'g'li Mirkomil tug'ildi. Mirkomil uning zulmat qoplagan qalbiga yorug'lik

olib kirdi. Endi Gulnoz bor e'tiborini farzandlari va boshlang'ich sinfda ta'lim olayotgan shogirdlari tarbiyasiga qaratdi. Ikki o'g'li va maktabdagi o'quvchilari orasidan o'nlab, yuzlab Vatan himoyachilarini tarbiyalashga ahd qildi. Buning uchun bolalariga kechalari otasining qahramonligini aytib berdi. Kunduzi esa darsdan bo'sh vaqtlarida o'zi o'qitayotgan sinf o'quvchilariga ana shu hayotiy voqeani takror-takror hikoya qildi. Farzandi Mirkomil Kamoliddinov va Islomjon Ibragimov ana shu hikoyalar natijasida haqiqiy Vatan himoyachisi bo'lib ulg'aydi.

2023-yili O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasini tugatgan Mirkomil hozirda Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida bosh inspektor lavozimida xizmat qilib kelmoqda. Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida tahsil olgan Islomjon Ibragimov Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchisi. Katta leytenant unvonida Jizzaxda o'z burchini o'tab kelyapti.

Oradan salkam 25 yil o'tdi. Yurtimizda minglab oilalarda o'g'il farzandlar dunyoga keldi. Ko'pchilik yaxshi niyatlar bilan farzandlarini Sariosiyo va Uzun voqealari qahramonlarining ismi bilan atadi. Hozirda ular 24-25 yoshli navqiron yigitlar bo'lib ulg'aygan. Ismining tarixini so'raganlarga munosib javob bera oladi. Chunki ular voyaga yetgan ko'chalar o'sha qahramonlar nomi bilan atalishini biladi. Ta'lim olgan maktablarida esa Vatan uchun ko'ksini qalqon qilgan navqiron yigitlarning xotira burchagi, byusti borligini faxr bilan tilga oladi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi kursantlari esa yotoqxonadagi xonalardan biri ana shunday qahramonga tegishli ekanidan g'ururlanishi tabiiy. Chunki Kamoliddin Toshpo'latovning xizmatdoshi Tolibjon Rajabov do'stining xotirasiga hurmatini shu tarzda namoyon etgan.

Yaqinda Kamoliddin Toshpo'latov nomi bilan bog'liq xotira burchagi yana bittaga ko'paydi. Chust shahridagi harbiy qismda Namangan garnizoni harbiy xizmatchilari "Mard o'g'lonlar nomi barhayot" nomli xotira burchagini ochdi. Xotira burchagida 7-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati 11-sinf o'quvchilari va faxriylar tomonidan manzarali daraxt ko'chatlari ekildi. Maktab o'quvchilari harbiy qismda barpo etilib, qahramonlar nomi o'rnatilgan xotira xiyoboni bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"

HUKMDORLAR

UCHUN...
DOSTONRIM IMPERATORLARI TINGLAGAN
HIKOYA

Maqdunda tug'ilib, mashhur tarixchi bo'lib yetishgan Poliyen 162-yili Rim saltanati imperatori Mark Avreliyga jang san'ati va harbiy hiylalarga oid 900 qadimiy hikoyani yig'ib, yozib keltiradi. Bu hikoyalarni Rimning yana bir oliy hukmdori Lusiy Ver ham qiziqib tinglaydi. Bu hol Rim hukmdorlarining an'anasiga aylanadi. Ularning maqomi hatto tojdan ham yuksakroq edi...

U hikoyalarning ba'zilari bizning bugungi hayotimizda ham alohida ibratli o'rin tutadi. Ulardan biri sak (*shak*), massaget, sagater, sug'ud, qam, xamar, chag', zariasp, ariasp, aginak kabi ko'plab elatlarga bo'linib qolgan Turon qavmlarining muqaddas daryosi ko'hna O'kuz (*Oks*) atrofida sodir bo'lgan. Bu yerlarga jahongir Iskandar Maqduunli qo'shin tortib kelishi uchun hali bosib o'tilmagan bir necha asr oldinda turardi. Maqduunli Poliyen Rim imperatorlariga olis O'kuz sohillarida bir sak jangchisi qanday qilib, minglab askarlardan

iborat ulkan fors qo'shinini yolg'iz o'zi mag'lub qilganini so'zlab beradi. Asrlarning uzun silsilasida bu hikoya Hukmdorlar tinglaydigan Dostonga evrilib, bizga qadar yetib kelgan.

SAVASH KENGASHI

Doro saklar diyoriga yurish qilish uchun uzoq va pinhon tayyorgarlik ko'rdi. Yaxshi qurollangan katta qo'shin to'pladi.

Turonning har burchida ayg'oqchilari izg'ib yurardi. Qanchalik yashirishga urinmasin, uning xatti-harakatlari va yovuz niyatidan O'kuz bo'yi xalqlari allaqachon darak topganini ham bilardi. Uni eng quvontirgani, ayni damda ularni birlashtiradigan ulug' xoqonning o'rni bo'sh edi. **Alp Er To'nga (Afrosiyob) xoinlarcha o'ldirilgach, uning davlati, mamlakati parchalanib, qavmi to'zib ketdi.** Yurtini himoya qiladigan kuch o'nlab mayda bo'laklarga bo'lindi, zaiflashdi. Har qanday Jangchi g'alabaga teng bunday qulay fursatni boy bermaydi. Yashinday tashlan va dushmani yanch! Doroning qudrati kundan kun oshib borayotgandi.

Saklar va qo'shni qavmlar baribir ulguradi. Doro ular ustiga qoplonday tez, yo'lbarsdek shiddat bilan tashlandi. Qavm oqsoqollari Saksfar, Amarg, Oamiris qaltis vaziyatdan chiqish yo'llarini topish uchun kengashga to'plandi. Shafqatsiz va jangga astoydil tayyorgarlik ko'rgan kuchli yog'iy yaqinlashib qolgan, ahvol og'ir edi.

MUHOKAMA QIZG'IN TUS OLDI. Muammoga yechim topish cho'zilib

ketdi. Ko'plab buyuk janglarni ko'rgan, Alp Er To'nga qo'shinida sadoqat bilan xizmat qilgan tajribali keksa jangchilar hikoyalarini tinglagan yabg'ular va gohida g'ayratlarini jilovlay olmay qoladigan o'ktam yosh tekinlarning boshi qotdi. Ko'pni ko'rgan jangchilar ham hayron edi. Fors va eronlilarning ko'p sonli, yaxshi qurollangan katta qo'shini bilan kurashish uchun elatlardan yetarlicha jangchilarni yig'ishga kamida bir oy kerak bo'lardi. Doro bu yerga besh kunda yetib keladi.

Hammaning boshi qotgan qiyin lahzalarda davra o'rtasiga bir kishi chiqdi. U saklar bahodiri va yo'l boshchisi Saksfarga yuzmayuz turib: **"Men yilqichi Shiroqman, - dedi. - Oilam, bola-chaqalarimni har qanday vaziyatda, hamisha himoya qilishga so'z bersang, dushmani yolg'iz o'zim bartaraf qila olsam kerak... Kengash ahli aytganlarimni tinglasa bas!"**

Yabg'ular uni eshitdi. Rejasini jo'yali topib, oilasini bir umr himoya qilishga so'z berdi. Shiroqning rejasini saklar harbiy kengashining yakuniy qarori bo'ldi.

QULOQ-BURUNSIZ SAK SIRTMOG'I

Shiroq qavm boshliqlari va buyuk jangchilar ko'z o'ngida pichog'ini qinidan chiqarib, quloq-burnini kesdi. Tanidagi boshqa a'zolarini ham tig' bilan jarohatladi va haqoratlangan, qiynoqlarga solinib, eldan quvilgan sotqinga aylanib, qarorgohdan "quvildi". Bu qo'rqinchli ko'rinish, ayanchli ahvolda unga biror uy eshigi ochilmasdi. Ko'rganning quti uchardi. Bundayini na sak, na massaget, na sug'd ko'rgan.

Shu alpozda u Doro huzuriga yetdi. Xorlik va yilqichining sak yo'l boshchilari nomiga nisbatan aytgan haqorat so'zlari shohning dilida umid, ishonch tuyg'ularini qo'zg'adi. Bu orada yilqichi Mangu olov va muqaddas Suvni shafe keltirib, intiqom so'zlarini aytib, rejasini bayon qilardi.

"Meni bu ahvolga solgan dushmanlarimdan forslar ko'magi bilan qasos olishga qaror qildim. Uning yo'lini ham topdim. Saklar jang qilishdan qochib, bugun tunda qarorgohlarini tark etadi. Qisqa yo'ldan yurib, ular boradigan joyga oldinroq yetib, pistirmada tursak, ularni qarmoqqa ilingan baliqdek qo'lga tushiramiz. Yilqi boqib, atrofda barcha yo'llarni yaxshi bilib olganman. O'zim yo'l ko'rsataman, manzilga boshlab boraman. Bir haftalik yemak-ichmak olsak bo'lgani".

Shon-shuhrat, dushman ustidan oson g'alaba, qo'lga kiritiladigan hisobsiz mol-mulk xayoli, katta va qudratli qavmlarni tobe qilish istagi Doroni allaqachon mag'lub etib ulgurandi. Barchadan yuqorida taxtda ko'krak kergan fors Shohi bo'yniga quyida bo'sag'ada o'tirgan Quloq-burunsiz yilqichi sak shu tariqa sirtmoq tashladi.

SAK ARG'UMOQLARI
VA ORALIQ

Bu voqealar qariyb ikki ming yil oldin Rim imperatorlariga so'zlab berilayotganda, Turon oqinlari do'mbira chalib, el orasida uni doston qilib kuylab yurardi:



– Hayyy,
Ot chopsa, gumburlar tog'lar darasi,
Shiroq edi yigitlarning sarasi.
Er yigitlar qo'riqlaydi elini,
Bosib kelsa, sindirar yov belini.
Turon yigitlari yovqurdir bari,
Sira uzilmasin do'mbira tori.

– Shiroq hikoyasi bugun
oddiy tarixiy ma'lumot, – deydi
suhbatdoshim, – davlat test
sinovlarida abituriyent oldida
ko'ndalang turib qoladigan.

– Yo'q, – deydi boshqasi, – u
abituriyent oldida emas, jaholat
qarshisida ko'ndalang turib oladi. U
ma'rifat olamiga qing'irlik yo'li bilan
kirmoqchi bo'lgan Johilni ochko'z
Doro kabi qaygadir adashtirib olib
ketishga shay. U hozir ham yog'iy
bilan kurashyapti. Biz o'zimiz ko'p
narsani ko'rmay qo'yganimiz...

Yana biri:

– Rim imperatorlari ikki ming
yil oldin tinglagan voqeani
aytishda davom eting, biz ham
eshitaylik, – deydi. – Iltimos, hech
kim hikoyani buzmasin. Jonim uni
tinglashni judayam istayapti. Mudroq
qonlarim uyg'onyapti. Ichkarida
kimdir do'mbira chalyapti...

* * *

Kutilmaganda hikoya o'rtasida
shunday oraliq paydo bo'lib qoldi.
Balki oldinda ular yana bordir. Bir
payt son-sanoqsiz sak yilqilari suruvi
dupuri eshitildi. Ular shiddat bilan
yaqinlashib keldi va sakrab, meni bu
oraliqdan olib o'tib ketdi.

Yana Shiroq va Doro voqealariga
borib qo'shildik.

SAHRO JANGI

Alqissa, Shiroq voqealar tizginini
qo'lga oldi. Forslar qo'shini yetti
kunlik yemak va suv to'pladi. Oson
g'alabadan umidvor bo'lib, cheksiz
sahro bag'riga qadam qo'ydi. Ushbu
cheki ko'rinmas kenglikda bir yolg'iz
Azaliy qo'rquv yashardi. Kelganlarga
eng avval u peshvoz chiqardi. Najot
istaganni yashirar, kekkaygan
va g'alamislarni xarob qilardi.
Uning o'z lashkari bor edi. Qushlar
qo'shiniga Burgut, hayvonlarga Bo'ri,
hasharotlarga o'rgimchak Qoraqurt,
kemiruvchilarga Kapchabosh ilon
boshchilik qilardi. Ular fothilik
talabida kelayotgan Doro haqida
bilib bo'lishgandi. **Turon ahli bor
chorvasini haydab chiqib, sahroni
bo'shatdi. Sahro endi haqiqiy jang
maydoniga aylangandi.** Uchqur
saklardan tuzilgan ilg'or qism Doro
qo'shinidan bir kun ilgari yurib,
barcha quduqlarni ko'mib boraverdi.
Burgutlar osmonda dushmanning
har bir qadamini kuzatib turdi.
Pana-panada yo qorong'i tushgach,
ularga Kapchabosh va Qoraqurt

tinimsiz hujum uyushtirardi. Yakka
qolganlarni bo'rilar yeb qo'yardi.
Shiroqcha uslubdagi jang shu edi.

Doro qo'shini sahro bilan qanday
urush qilishni bilmadi. Har kuni
talafot ko'rardi. Ular yilqichi Shiroq
aytgan manzilga tezroq yetib borishni
o'ylardi faqat. Nihoyat, mashaqqatli
olti kun o'tdi, yettinchisi keldi. U
oldingilaridan ham qo'rqinchiroq va
shafqatsiz bo'lib chiqdi. Barchaning
umidini uzdi, hafsalasini pir qildi,
unda zarracha iltifot yo'q edi. U
yemak va suvi tugagan ulkan
qo'shinni sarosimaga qamab qo'ydi...

Hujumga shaylanib, shaxdam
kelayotgan fors qo'shini dovdirab
qoldi. Saflarga vahima oraladi.
Sahro shamoli ularga o'lim nafasi
bo'lib tuyuldi. Alamidan ming askar
boshlig'i Ranosbat quturib ketdi.
U Shiroqning oldiga kelib: **“Nega
shunday katta qudratli fors
qo'shinini biror bulog'i yo'q,
qush yo hayvon ko'rinmaydigan,
oldinga yurib yo ortga qaytib
bo'lmaydigan sahroga boshlab
kelding?”** deya o'dag'ayladi.

SHIROQ XOTIRJAM EDI. U
qo'llarini ko'tarib, qarsak chaldi,
qah-qah otdi. “Men g'alaba qozondim!
Yurtdoshlarim saklar boshiga
kelgan baloni daf qilib, fors va eron
qo'shinini ochlik, tashnalik ofatiga
yo'liqtirdim” dedi.

Forslar yalinib-yolvord, boylik
va'da qilishdi, bu jahannamdan chiqib
ketish yo'lini so'rashdi. U kuldi. “To'rt
tarafingiz ham qizigan qumlardan
iborat yetti kunlik masofa, joningiz
omonligini endi faqat Tangridan
so'rang” dedi.

G'azabdan tomirlari yorilgudek
taranglashgan Ranosbat qilichini
havoda silkitdi va bir sermab, uning
kallasini tanidan uzdi.

Sahro qadimdayoq bir jasur
jangchi minglab askarlardan iborat
katta qudratli qo'shinni yenga olishi
mumkinligini odamlarga shu voqea
orqali ko'rsatgandi.

NAJOT SO'QMOG'I

Shoh Doro baloga giriftor
bo'lganini chuqur iztirob bilan
his qildi. Turonda bir yilqichi sak
uni minglab askarlari bilan butkul
mag'lub etganini ich-ichidan
mardona tan oldi. Kibr qilish yo
kekkayish fursati emasdi. Jazirama
sahroda qil ustida turgan jonini
va iloji boricha, qo'shinning omon
qolgan qismini asrab qolishni o'yladi
u. Boshiga mahkam o'rnashib olgan
jaholat o'rnini aql va farosatga
bo'shatib berdi. Tepalikka chiqib, qizil
dengiz to'ni (*porfira*), cho'qqi qalpog'i
(*tiara*), asoi (*skipetr*), peshona bog'ini
(*diadema*) yechdi va hukmdorlikning
oliy nishonalardan qutulib, mutelik
maqomiga kirdi. Kunchiqar pallasida
Apollon haqqiga ibodat qilib, undan

forslarni o'limdan qutqarish uchun
ko'kdan yomg'ir yuborishini o'tindi.
Ibodati uni ochko'z va qahrli hukmdor
yo'lidan Tangrining najot so'qmog'i
boshida turgan oddiy, muhtoj
kishilari qatoriga qo'shdi. Uning bor
vujudi ibodat qilishda davom etardi...

Bir payt haqiqatan ham ko'kdan kuchli yomg'ir quyildi.

Forslar burduqlari, qo'llaridagi
bor idishlarini suvga to'ldirib oldi.
Shoshilinch izlariga qaytishdi.
Bir kishiga mag'lub bo'lishganiga
hech birining ishongisi kelmasdi.
Ammo sahro hujumini hali
bo'shashtirmagan edi. Ko'kda
ularni g'ajirlar galasi ta'qib qilardi.
Tunlari bo'rilar uvullardi. Kecha-
kunduz to'xtamay yo'l yurishdi,
faqat omon-eson yurtlariga yetib
olishni o'ylashardi. Tangriga
tinimsiz shukronalar ayta-ayta, Doro
qo'shinining qolgan-qutganlari Baqtr
daryosi qirg'oqlariga yetib oldi.

HIKOYA ATROFIDAGI ODAMLAR

Bu voqea bilan tanishib
qolgan har qanday hikoyachi
davralarda uni so'zlamasdan keta
olmaydi. Iskandar Zulqarnayn
to'g'risidagi mashhur hikoyalar
ham uning oldida navbat kutib
turadi. G'aznalik sulton Mahmud,
saljuq Tug'rubek, sulton
Sanjar, Sohibqiron Amir Temur,
Abdullaxon kabi hukmdorlar
askarlari orasida ham u ko'p
bor hikoya qilganiga negadir
yuragim qattiq ishonadi. U
askarlarni jangga ruhlantirgan,
yurtini himoya qilishni o'rgatgan,
dushmanni tanitgan, g'alaba
yo'llarini ko'rsatgan.

Qishlog'imizda uni deyarli barcha
tinglagan. Uyimizda u hozirgacha
tez-tez hikoya qilinadi. Har gal
voqea kattalashadi, kengayadi,
unga qiziqarli boshqalari ulanadi.
Ularni eshitgach, zerikib bo'lmaydi.
**Ular qalblarga O'kuz va Yaksart
atrofida 2500, 3000–6000 yillar
ilgari sodir bo'lgan tarixiy
voqealarning kirib kelishiga yo'l
ochadi. Ularning mavjudligiga
ishontiradi.**

Taqdir bizga ham Shiroq
ardoqlagan, yovlardan asrash uchun
kurashgan, uning avlodlariga
makon bo'lgan, ular muqaddas deb
bilgan yurtda yashashni nasib etdi.
Bugun uni dunyo ahli O'zbekiston
nomi bilan taniydi. O'sha davr
kishilarida bo'lgan yurt qayg'usi
bugun ham o'zgargani yo'q. Tarixiy
bardavomlikda millatning Vatan
oldidagi mas'uliyati ortgan bo'lsa
ortgandir, aslo kamaymagan.

TARIX SO'QMOG'IDA KETAYOTIB, ba'zan katta davra

qarshisidan chiqib qolaman. Kurash
bo'layotgandir, deb o'ylayman. Biroq
ichkarida bir oqin ko'hna bir voqeani
qo'biz chalib, kuylayotgan bo'ladi.

– Hayyy,
Avvalo yigitning ori bo'lsin,
Yonida vafodor yori bo'lsin...

Bir doston atrofida katta xalq
to'planib, boshlarini tebratib
tinglaydi. Oqin jo'shib hikoya
qilayotir. Hikoya atrofiga yig'ilgan
bu odamlar tepasidan bahodirlik,
yurtparvarlik, or-nomus, muhabbat,
tantilik, jo'mardlik tuyg'ularini
sochadi. Uning bisotida ular hech
qachon tugamaydi.

**Men undan yurt qo'riqchilari
– askarlarimiz ham bahramand
bo'lishlarini istadim va tutib
qolishga ulguramizni
bilganimcha satrlar orqali
sahifalariga joyladim.**

QO'SHNI SATRLAR

Maqduunli Poliyen yana deydi.
Semiramida yozuvi: “Tabiat meni
ayol qilib yaratdi. Qahrmonliklarim
bilan o'zimni eng jasur, bahodir
erkaklar bilan tenglashtirdim.
Nin saltanatini sharqda Ginam
daryosidan, shimolda saklar va
sug'dlargacha boshqardim...”

Poliyen zamondoshi Iskandariyalik
Klement (*m. II asr*) Rim ko'chalarida,
olim-u shoirlar davrasida ushbu
voqeani hikoya qilishni yaxshi
ko'rardi.

– Sak ayollari yolg'ondakam
qochganlarida erkaklari kabi egarlarida
shartta orqalariga o'girilar va o'q otib,
nishonga bexato urar edilar.

* * *

Bu hikoyalarni to'xtatib bo'ladimi?
Ular birzum to'xtamay, O'kuz va
Yaksart bo'lib, Turon zaminida
oqaveradi.

Abdusattor JUMANAZAR,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi
Sharqshunoslik instituti
ilmiy xodimi



Ajdodlar merosi

AMIR TEMURNING AMIR UL-UMARO



Amir Temurning eng mashhur sarkardalaridan biri uning do'sti va safdoshi bo'lgan amir Jaku Barlosning o'g'li Jahonshoh Bahodur jahongirliigi va janglarda ko'rsatgan jasorati uchun qo'shin bosh qo'mondoni – amir ul-umaro darajasigacha ko'tarilgan.



Jahonshoh Bahodur dastlab Sulaymon Barlos, amir Muso Barlos, amir Jaloliddin, amir Hinduka Barlos, amir O'ljoytu, Shayx Muhammad Bayon kabi ko'plab sarkardalar qatorida Amir Husayn tomonida turib, unga qarshi olib borilgan janglarda ishtirok etgan.

Muiniddin Natanziy Amir Temur bilan Amir Husayn o'rtasidagi muhorabada "Amir Muso, amir O'ljoytu va Shayx Muhammad Bayon boshchiligidagi Qoraunnas lashkarlari mang'layi qariyb yigirma ming otliqlardan iborat qism bilan Bulung'ur suviga kelib tushgan. Amir Husayn Malik Bahodurni So'zangaron yo'lini qo'riqlash

uchun yuborgan. Jahonshoh bir yarim ming otliq bilan Raboti Malikda o'rnashdi. Xirman Bahodurni Jizzax yo'lini to'sib qo'yishi uchun bir ming otliq qo'shin bilan jo'natdi", deya Jahonshoh Bahodurning nomini ilk bora eslatib o'tgan. Shu jangda Amir Temur oz sonli qo'shini bilan g'alabaga erishadi.

Jahonshoh barlos Nishopur, Mozandaron, Qandahor, Isfahonni zabt etishda, Tabrizdan Sulton Ahmad Jaloyirni quvib chiqarishda katta jasorat ko'rsatgan.

JAHONSHOH BAHODUR Amir Temur ishtirok etmagan ko'pgina

yurishlarni ham boshqargan va yirik g'alabalarni qo'lga kiritgandi. Qandahorni olishda Jahonshoh Bahodur, Mubashshir va Iskandar Shayxiyga alohida ishonch bildirilgan va ularga e'tibor, izzat-ikrom ko'rsatilgan.

Jahonshoh Bahodur, Mubashshir Bahodur, Iskandar Shayxiylar Amir Temurning amriga muvofiq, o'z qo'shinlari bilan shaharga avval yetib kelib, jang boshlaydi. Jahonshoh Bahodur Qandahorni zabt etarkan, dorug'asini tutib, Amir Temur oldiga olib keladi. Unga xos bo'lgan tezkorlik, qo'shinni turli tomondan yopirib, dushman ustiga tashlash, dushmanga imkon qoldirmaslik kabi xususiyatlar xos bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temur "**Jahonshoh Jokuni maqtab, lutflar qildi va uni cherik bila Kalot hisoriga yibardi**" deya unga nisbatan hurmat-e'tiborini alohida ko'rsatib o'tgan. Kavkazdagi yurishlari paytida Jahonshoh Bahodur Lakzlar yerlarini ishg'ol etgan. Bu matonatli sarkarda turkmanlar yerini ham shiddat va matonat bilan ishg'ol etgan. O'sha paytda uning nomi Sharqda mashhur bo'lgan va dushmanlari uning nomini eshitganda titrar darajada jang usuliga ega bo'lgan strateg sarkarda bo'lgan.

Alinjacq qal'asini qo'lga kiritish paytida Amir Temur "Jahonshohbek Alanchuq qal'asining ishini Sulton Sanjar va Xoja Sayfuddinbekka va Mirzo Mironshohning mulozimlariga topshurub, o'zi amirzoda Muhammad Sultonning keyinida Fors viloyatiga borsun!" deb amri farmon bergan.

MO'G'ULISTON XONI

Qamariddinga qarshi qaqshatqich zarba berishda jonbozlik ko'rsatgan. Sharafiddin Ali Yazdiy Jahonshohga Amir Temurning ishongani va unga eng murakkab vazifalar topshirilganini alohida ta'kidlab o'tgan. U agar bu beklar haqida gapirsam, uzundan

uzun hikoya bo'ladi, deb ularning qilgan ishlari ko'p ekanini aytib o'tgandi. Amir Temur ko'pgina yerlarni zabt etishda shaxsan o'zi ishtirok etmagan, o'zi ishongan lashkarboshilari orqali yurishlarni bir necha nuqtalarda olib boravergan. Shu lashkarboshilarning eng oldingi qatorlarida Jahonshoh Bahodur turgan.

Ba'zan Jahonshoh Bahodur mushkul ahvolda tushib qolganda ham sovuqqonlik bilan shoshilmasdan, qaysarlik bilan jangni olib borish taktikalarini ishlab chiqqan va doim g'alabaga erishgan. Xususan, u Muhammad Mirakning yog'iyilgiga qarshi yurishga tushgan paytda yo'lda unga qarshi yana bir xavfli kuch paydo bo'ladi. Sharafiddin Ali Yazdiy Burolday elining dushmanligi Jahonshohni ancha qiyin vaziyatga tushirib qo'ygani va bu holat bo'yicha xabargirlar orqali Amir Temurga arz qilganini hikoya qilgan. Bu sharoitda hali kuchlar yetib kelib ulgurmasdan, u oz sonli lashkari bilan ko'p sonli dushmanlarga yuzma-yuz keladi va shiddati, to'g'ri tadbiri, Amir Temurdan olgan bilimi va sabr-bardoshi bilan ushbu jangda g'alaba qozonadi. Ular Bag'longa yetib, dushmanlarni daf etadi.

Shundan keyin tog'da hisorda o'tirgan, tish-tirnog'igacha qurollangan Muhammad Mirakka qarshi yurishni boshlaydi. Amudaryo yoqasida xoja Yusuf, Pir Ali Toz qo'shinlari ham Jahonshoh Bahodurga kelib qo'shilishi kerak edi, ammo ular yetib kelib ulgurmaydi. Ular daryoga sol tashlab, narigi sohilga o'tib oladi. Burolday eli va Boyazidning uch minglik qo'shini 60 kishilik Jahonshoh qo'shiniga hamla uyushtiradi. Shu sharoitda ham Jahonshoh qochishni ixtiyor etmasdan, qo'rqmasdan va qattiq azm-u jazm bilan qo'shinni ruhlantirib, Xudoga tavakkal qilib, sohibqiron Amir Temurga sadoqatini izhor etib, suvga orqa berib, qalqonlarini



BOSH QO'MONDONI – JAHONSHOH BAHODUR

boshlariga tortib, mardonavor jangga kiradi. Tun bo'yi to tong otgunga qadar o'rtada o'qlar yomg'iri yog'diriladi, qilich va gurzi ishlatib, jang davom etadi va dushmanning qochishiga sabab bo'ladi.

JAHONSHOH BAHODUR 60 kishilik qo'shini bilan 3 000 qo'shin saflarini buzib tashlagan va o'zi omon qolgan buyuk lashkarboshidir. Shu paytda Xo'ja Yusuf bir navkarini suvdan sinoj bilan o'tkazib, Jahonshoh Bahodurga xabar yubordi: "Mardona bo'lunglarkim, Munk cheriki bilan yetayim". Jang qizigan paytda Pir Ali Toz va Xo'ja Yusufning yuz kishilik askari bilan suvdan kechib o'tib, jangga tashlandi. Tong otganda uch ming kishilik qo'shin tumtaraqay bo'lib qochadi. Shu voqeadan keyin Jahonshoh Bahodur Qunduzda bo'ldi, so'ng Hindikush tog'idan o'tib, Kobulga keldi. Bu paytda Amir Temur Xorazmda yurishda edi (1388).

Amir Temur Abu Saidning dushmanligi va uning Burolay eli bilan birlashganini eshitgach, Jahonshohga yordam kuchlarini yuborgan va dushman kuchlari batamom sindirilgan, Jahonshoh Bahodur Jeta yurishida ham faol qatnashgan. "Yarluq bo'ldikim, amir Jahonshoh va Uch Qaro Bahodur va o'zga beklar o'ttiz ming kishi bilan o'tlanib, Irtyshqa dushmanlarini istagani borsunlar". Amir Temur Jeta yurishidan 1389-yilda Samarqandga qaytgan va Jahonshoh Bahodurni qo'shinga bosh qilib qoldirgan.

1390-yilning bahorida Amir Temur To'xtamishxon masalasini ko'rish va qaror qabul qilish uchun Kesh viloyatining Oqyor mavzesida qurultoy chaqiradi. Bu qurultoyga "Har viloyatdin tumanat hazorijotning beklari va viloyatlarning dorug'alari hozir bo'lsun" degan farmoni oliy bo'ladi.

Sharafiddin Ali Yazdiy bu qurultoyda Amir Temurning lashkarboshilaridan Xoja Sayfuddinbek, amir Jahonshoh Joku va amir Shamsuddin Abboslarning nomini alohida tilga olib, ular podshohona peshkashlar tortgani va to'y bergani haqida ma'lumotlar keltirgan. Demak, ular saltanatdagi eng nufuzli shaxslar hisoblangan. Sharafiddin Ali Yazdiy Muhammad Sultonshoh, Sayfuddinbek, amir Jahonshoh Jaku (*Jahonshoh Bahodur*)dan Amir Temurning xursandligini, ularning ishlaridan xushvaqt bo'lganini ko'p bora ta'kidlab o'tgan.

1391-YILDAGI To'xtamishxonga qarshi olib borilgan jangda ham Jahonshoh Bahodur katta matonat ko'rsatgan. Xoja Sayfuddinbek barchadan avval To'xtamishning chap qo'l qo'shiniga qarshi jangga kirgan. To'xtamishxonning qo'shini ko'pchilikni tashkil etgan, ular Sayfuddinbekning ortidan kirib, o'rab olishni niyat qilganda, Jahonshoh Bahodur qo'shini bilan kirib, raqib rejasini barbod qiladi va dushmanni ortga surib tashlaydi. 1395-yildagi To'xtamishxon bilan bo'lgan savashda ham Jahonshoh Bahodur qattiq jang qilgan va matonat ko'rsatgan.

Xoja Sayfuddinbek mana shu urushda piyoda jang qilishiga to'g'ri kelgan va yopirilib kelgan otliq dushmanlarni o'q yomg'iri bilan yaqinlashtirmay turgan. Bu holatni ko'rgan Jahonshoh o'zining tuman qo'shini bilan To'xtamish qo'shiniga yondan zarba bergan. Uning shiddati, tezkorligi va jang usullariga hech bir dushman dosh bera olmasdi. Sayfuddinbek va Jahonshoh Bahodur birlashib, qo'shinning so'l qismini surib tashlaydi va ularni mag'lub etadi. Amir Temurning sarkardalari Jahonshoh Bahodur va boshqalar jang sahnasini yaxshi tushungan va ular qayerda, qanday holatda jang qilishni vaziyat taqozosiga ko'ra belgilagan. Aslida Amir Temurning shaxsi ortidagi shon-shavkatlarda u

tanlagan ana shu lashkarboshilar tarixi turadi. Kadrlarni joy-joyiga qo'ya olishi uning ulug'ligi va buyuk hukmdorligiga dalolatdir.

Jahonshoh Bahodurning Basra, Gurjiston, Halab va Damashqni zabt etishda, Oltin O'rdaga qarshi kurashlarda, Hindiston yurishlari, Anqara jangida, Bursaning fath etilishida ham katta matonatlar ko'rsatgan. Dehli voliysi sulton Mahmud bilan jangga kirganda Jahonshoh Bahodur qo'shinining so'l qismida Husayn Bahodur, amirzoda Xalil Sulton, G'iyosiddin Tarxonlar bilan bir safda turgan. Orada shiddatli jang bo'ladi, Jahonshoh Bahodur dushman qo'shini darvozasiga yaqin boradi, qul va manglay qismdan Rustam Bahodir, amir Shayx Nuriddin va Shoh Malik va Allohdodlar dushman markazini o'rab oladi. Shiddatli jangda Amir Temur qo'shinining qo'li baland keladi va Sulton Mahmud bilan Malluxon oz sonli kishilari bilan qochib, shahar ichiga kirib oladi, alaloqibat mag'lub etiladi.

IBN ARABSHOH Damashq va uning qal'a hisorini olishda ko'rsatgan xizmatlarini alohida ko'rsatib o'tgan. Xususan, Damashq qal'asi muhosarasiga boshliq etib Jahonshoh Bahodur tayinlangani haqida ma'lumot berib o'tgan. "Amir Temur o'zining ulug' amirlaridan biri Jahonshoh deb ataluvchi amiri zimmasiga (*Damashqni zabt etish vazifasini – Sh.O'*) yukladi. Natijada Jahonshoh bunga kafil bo'lib, uning bilan mashg'ul bo'ldi. U qal'a qarshisiga manjaniqlar o'rnatdi. Va uning ostidan lahmlar qazib, devorlarga ilgaklar tashladi".

Qal'a mustahkam bo'lib, uni olish uchun juda katta kuch, sa'y-harakat, shiddat va tadbir kerak edi. Qirq uch kun deganda qal'a qo'lga kiritiladi. Ibn Arabshoh qal'aning ustiga Amir Temur jangchilari yopirilganda ular yuqori-yu pastdan, o'ng-u so'ldan kelib dushmanni siqa boshlagani, ularning shiddati, jang harakatlariga qarshilik ko'rsatishdan qal'a jangchilarining qo'llari charchaganini alohida aytib o'tgandi. Rostdan ham bu kabi jang

usullarini hali olam ahli ko'rmagan edi. Qal'a ahli o'takasi yorilib, jon holatda Amir Temurdan omonlik tilab, hech ikkilanmasdan qal'adan tushdi.

Amir Temur nabirasi Umar Bahodurni 1404-yil 6-aprel kuni Iroqi Ajam, Ozarbayjon, Arron, Mug'on, Armaniya, Gurjiston mamlakatlari va ularga yondosh ellarni boshqarish uchun tayinlaganda, Jahonshoh Bahodurni u bilan birga yuborgan. Ul mamlakatlarning hal qilish va man etish, egalik qilish va kengaytirish ishlarini ularning ixtiyoriga topshirgan.

BUNDAN KO'RINADIKI, Jahonshoh Bahodur nafaqat yirik lashkarboshi va sarkarda, balki davlat boshqaruv ishlarini ham puxta bilgan, zamona vaziyatlarini yaxshi anglagan, bilimli va tajribali dono rahbar ham bo'lgan. U hech qachon Amir Temurga xiyonat qilmagan, u buyurgan ishlardan bo'yin tovlamagan, o'ziga topshirilgan ishlarni maromiga yetkazgan sadoqatli qo'mondon bo'lgan. Amir Temur Jahonshohni amirzoda Umarga hamrais qilib qo'yar ekan, u yerdagi xavfsizlik va mudofaa ishlarini tashkillashtirishni unga ishongan. Ayni paytda Jahonshoh Bahodur Amir Temur davlati xavfsizlik tizimining yirik mansabdori, buyuk general vazifasini bajargan.

Bundan ko'rinadiki, Jahonshoh Bahodur Amir Temurning eng ishongan lashkarboshisi bo'lgan va unga ishonib, eng yirik janglar va qal'alar topshirilgan. U O'rta Yer dengizidan Irtysh daryosi bo'ylarigacha yerlarni o'z ichiga olgan hududlarda o'nlab janglarda Amir Temur qo'shinida xizmat qilgan va uning g'alabalarini ta'minlashda jonbozlik ko'rsatgan.

XIV ASR OXIRIDA sarkardaning Oltin O'rda qo'shinlarini tor-mor qilishi Rossiya davlati shakllanishi uchun katta ijobiy rol o'ynagan. O'nlab janglarda g'olib chiqqan Jahonshoh siyosiy fitna tufayli o'zining yaqin do'sti tomonidan o'ldiriladi.

Xoja Sayfuddin, Muhammad Sultonshoh, usmon Bahodir, Shayx Nuriddinbek, Sulaymon shoh, Xudoydod, Berdibek, Shamsuddin Abbos, Amir Shohmalik, Shoh Malik, Menglixo'ja, G'iyosiddin Tarxon, Amir Shayx Arslon, Sevinchak Bahodir, Temur Xoja Oqbug'a va boshqa ko'plab sarkardalari bo'lgan Amir Temur qo'shinida amirlar soni jami 313 nafar bo'lib, ular 12 tabaqa bo'yicha amal zinasidan ko'tarilib borgan. Birinchi darajali amir 1 000 kishiga, ikkinchi darajali amir 2 000 kishiga, ya'ni ikkita amirga, uchinchi darajali amir uchta minglikka, ya'ni uchta birinchi darajali amirga bosh bo'lgan va shu alpozda ular ko'tarilib boravergan. 10 000 qo'shin boshlig'i tumanboshi deyilgan. Amir Temur qo'shinida 4 ta nufuzli beklarbegi mansabi bo'lgan, qo'shinning bosh qo'mondoni amir ul-umaro deb atalgan.

Umuman olganda, Amir Temurning turli podshohlar bilan olib borgan urushlari, jang taktikasi va strategiyalari, qo'shinda matonat ko'rsatgan, g'alabalarini ta'minlab bergan nufuzli sarkarda va bahodirlarning tarixini o'rganish bugungi kunda dolzarb masaladir.

Shohistaxon O'LJAYEVA,
tarix fanlari doktori, professor



2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

Insoniyat taraqqiyoti yuksalar ekan, ekologiya haqida jonkuyarlik bilan aytiladigan fikr-mulohazalar salmog'i oshib, ko'lami kengayib borayotgani ayni haqiqatdir. Ayniqsa, fan-texnika rivojlanib, uning ta'sirida sanoat shiddat bilan ravnaq topgan XX asrda bir antagonistik ziddiyat yaqqol ko'rinib qoldi. Bir tomondan, ko'payib borayotgan aholining bitmas-tuganmas moddiy ehtiyojlarini qoplash tashvishi, ikkinchi tomondan, sur'atli taraqqiyot tufayli ekotizimlarda yuzaga kelayotgan vaziyat bilan bog'liq masalalar umumbashariy sivilizatsiyamiz kun tartibidan qarama-qarshi maqomda o'rin oldi.



TABIATNI ASRASAK,

Buning ajablanadigan joyi yo'q edi. Negaki insoniyatning yashash muhiti salbiy tomonga burilib, tabiatga munosabatni o'zgartirish haqidagi chaqiriqlar balandroq va kengroq miqyosda jaranglay boshladi. Nihoyat, o'tgan asrning 70-yillarida nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarni qamrab oladigan “ekologiya” atamasi paydo bo'ldi.

O'rta va katta yoshdagilar tevarak-atrofdagi holat avval qanday edi-yu, hozir qanaqa ekanini qiyosan biladi. Yoshlar buni ulardan so'rab, bilib olishi mumkin. Yoki diqqat bilan tabiatga razm solib, o'zlari ham oz bo'lsa-da, muayyan taassurot hosil qila oladi. Chunki bugungi hayotimiz shiddati tabiiy muhitni juda tez o'zgartiryapti. Masalan, savlat to'kib turgan chinorlar kesilib ketgani faqat yozning jaziramasida emas, balki o'sha makondagi manzara ko'rimsiz bo'lib qolganidan ham darrov bilinadi. Yoki hosilidan mahallako'y ozmi-ko'p tatib turgan mevali daraxtga bolta urilgani faqat ko'ngil meva tusaganda emas, balki o'sha joydan fayz-u baraka ketgandek hissiyot uyg'onganda, ba'zilar uni qo'msab eslaganida ham birdan bilinadi.

HA, TABIATDAN BIROR NARSA OLINGANDA, uning o'rni to'ldirilmasa, hozirgi istiloh

bilan aytganda, kompensatsiya choralari ko'rilmasa, oqibati ayanchli va qayg'uli bo'lishini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Birgina Orol fojiasini olaylik, bir mahallar paxta yakkahokimligi tufayli daryolar suvi to'silib, cho'llarga burilmaganida, hozirgi ekologik bo'hronga o'rin yo'q edi. Markaziy Osiyo iqlimini barqarorlashtirib, yog'in-sochinini bir me'yorda ushlab turgan dengiz o'z sohillaridan yuzlab kilometr nariga “qochib ketdi”. Natijada zararli kimyoviy moddalar bilan to'yingan, tuz bilan qoplangan bu qumliklarda kema qabristonlari paydo bo'ldi, aholi orasida turli kasalliklar ko'paydi. Aytaversa, ado qilib bo'lmaydi.

Mashhur geograf Armand Lvovich (1905–1976) **“Tabiatga mehmon bo'lib borsangiz, odamlarnikiga mehmonga borganda qilish odobsizlik bo'lgan hech bir ishga qo'l ura ko'rmang!”** deganda, tabiatning tizimini buzmaslik, uni xo'rllamaslik va xorllamaslik kerakligini nazarda tutgan, albatta.

Avvallari dunyo xalqlari turfa madaniyat va tarixga ega bo'lgan, turli iqlim sharoitida, har xil ijtimoiy-iqtisodiy muhitda yashagan. Geologiyasi, geografik joylashuvi, relyefi boshqa-boshqa bo'lgan. Lekin ularni bir jihat

birlashtirib turgan. Bu tabiat bilan uyg'un va hamohang hayot kechirishdir. Har bir xalqning sersuv yo qurg'oq, sovuq-issiq, serhosil yo taqron, tog'lik-tekislik va boshqa jihatlariga ko'ra, tabiat bilan munosabatlarga oid o'z ma'naviy-axloqiy me'yorlari bo'lgan. Lekin ilmfan va texnika taraqqiyoti tufayli globallashuv jarayonlari paydo bo'lib, dunyoning eng chekka nuqtalariga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshlaganidan keyin me'yorlar, yana ham achinarlisi, ular asosidagi qadriyatlar yo'qlik sari yuz tutdi.

DUNYONI QO'YA TURAMIZ-DA, o'zimizdan kichik misol keltiramiz. Yoshi ulug'lar uyimiz, mahallamiz yaqinidagi suv havzasidan, ariq-anhorlardan ilgari odamlar suv ichgani haqida hasrat bilan so'zlab qolishi bor gap. Ko'p qishloqlarning o'z buloq-chashmalari bo'lgan. Ariqlar hovlidan hovliga o'tgan. Qo'shningning jamoatning haqqi -

hurmati uchun hech kim ularni ifoslantirmagan. “Daryo bo'yida turgan bo'lsang ham, suvni isrof qilmay ishlat” naqliga binoan tejamkorlik bilan ishlatgan. Chunki oqimning quyi tomonida boshqa qishloqlar bo'lgan, suv ularga ham yetib borishi, borganda ham, iste'molga yaroqli va yetarli bo'lishi kerakligini mulohaza qilgan.

Bugungi yangi avlod chiqindiga to'lgan badbo'y suvga qarab turib, keksalarning aytganiga ishonishi amrimahol, albatta.

Shu o'rinda beixtiyor AQSh kibernetikasining otasi Viner Norbetning “Biz atrof-muhitni shu qadar o'zgartirib yubordikki, endi unda yashashimiz uchun o'zimizni

vazifalaridir. Inson tabiatni, uning hodisalarini, bu hodisalar o'rtasidagi bog'liq jihatlarni, noto'g'ri ekologik munosabat oqibatlarini yaxshi bilsa, atrof-muhitga zarar yetkazishga qo'li bormay qoladi.

Albatta, hamma ishni soha mutaxassisleri yo faollarning zimmasiga yuklab qo'yish to'g'ri emas. Negaki ekologik madaniyatga ta'lim va ma'rifatdan tashqari, tajriba, an'ana va qadriyatlar, mahalliy iqlim, tabiiy muhit, geologiya, geografik joylashuv, tabiiy boyliklar kabi ko'plab boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bu tushuncha negizida o'simliklar ekologiyasi, jonivorlar ekologiyasi, sahro, tundra, tog'-u

o'zgartirishimiz kerak bo'lib qoldi” degan gapi yodga tushadi. Robert Grin Ingersoll esa sal boshqacha aytgan, lekin mo'ljalga aniq tekkan: “Tabiatda mukofot ham, jazo ham bo'lmaydi – faqat oqibat bo'ladi, xolos”.

Aslida insoniyatning bugun Yer yuzida yashayotgan avlodi ekologik madaniyat pog'onasidan oshib o'tib, ekologik sivilizatsiya darajasiga yetishi kerak edi.

EKOLOGIK MADANIYAT NIMA O'ZI? Bu umuminsoniy madaniyatning bir qismi bo'lib, inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy va shaxsiy ma'naviy-axloqiy me'yorlarni qamrab oladi. Ekologik madaniyat insonlar jamiyati bilan tabiatning o'zaro uyg'un muhitda hayot kechirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning atrof-muhit va ekologik muammolarga to'g'ri munosabatini taqozo etadi. Shu bois ekolog faollar “ekologik ma'rifatni rivojlantirishi kerak. Jamiyatda ekologik bilimlarni boyitish, odamlarda atrof-muhitga to'g'ri munosabatni shakllantirish, tabiiy boyliklardan unumli, oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish tamoyillarini keng yoyish ularning birlamchi

o'rmonlar ekologiyasi, qutblar ekologiyasi, okean ekologiyasi, atmosfera ekologiyasi, global ekologiya, koinot ekologiyasi, shuningdek inson ekologiyasi, me'moriy ekologiya, shahar-u qishloq ekologiyasi singari ko'p tarmoqlar mujassam bo'lgan. Ma'naviy ekologiya ham bor.

ODAMNING BIRINCHI MURABBIYI – ota-ona. Odob-axloq, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini bolaga birinchi bo'lib uni dunyoga keltirgan o'rgatadi. Ekologik madaniyat, ya'ni ekologik tarbiya ham shular qatoridadir. “Daraxtning mevasini ye, lekin hargiz shoxini sindira ko'rma!”, “Suvga tuflama, suvga qarab supurma!”, “Yoz oylarida xas-xashakka o't tushirishdan ehtiyot bo'!””, “Tog'ga chiqqanda, cho'milishga borganda, o'rmon kechganda chiqindi qoldirma!”, “Uy yo mashina derazasidan tashqariga narsa uloqtirma!” kabi tanbehlar bolada faqat tozalik va odob ko'nikmalarini hosil qilmaydi, balki unda butun bir ekologik madaniyatning poydevorini shakllantirib, tabiatga mehrini, atrof-muhit barqarorligiga daxldorlik hissini oshiradi. Shundan keyin u bola chiqindi solingan idishni duch kelgan joyga qo'yib ketmasdan, chiqindixonaga olib boradi.

Shaharlarimiz nima uchun ivirsib ketyapti? Chunki bolalar



tugul kattalar ham erinchoqlik qilib, paketni qaysidir burchakka qo'yib ketadi. Unga bir-ikki kishining ko'zi tushadi. Keyin ba'zilar "Men ham shu yerda qoldirsam-chi!" degan o'ylar boradi. Hech qancha vaqt o'tmay, bitta paket qoldirilgan joyda qo'lansa hid tarqatadigan kattagina uyum paydo bo'ladi.

Dam olish joylariga olib boradigan yo'llar, shaharlararo magistrallar borasida ham shu gap. Kimdir poyezd yo avtomobil derazasidan bir nimani yo'l chetiga itqitadi va afsuski, bu tanbeh uchun sabab emas, takror uchun "o'rnak" bo'ladi. Bu yo'llardan yurganlar biladi - manzilga borguncha ham, uyga qaytguncha

kichik bo'lsa-da, uning gapi global tarzda umuman butun Yer yuziga taalluqli. Yer - hammamizning umumiy Vatanimiz, umumiy uyimiz.

Ekologik madaniyatni ota-onadan keyingi navbatda, boshlang'ich ta'lim muassasalari tarbiyachilari, so'ng maktabda o'qituvchi-murabbiylar o'rgatib borishi zarur. Chunki ekologik madaniyat, yuqorida ta'kidlanganidek, umuminsoniy madaniyatning uzviy, ajralmas bir qismidir. Inson qisman madaniyatli yo qisman madaniyatsiz bo'lmaydi.

Aslida ko'hna dunyo olimi Sitseron juda aniq aytganidek, "Ilm-fanning paydo bo'lishi zamirida, avvalo tabiatni kuzatish va o'rganish

o'zidan suv, o'rmonlar, energiya kabi tabiiy resurslarni tejaydi. Chunki ularni isrof qilish oxir-oqibat mahrumlikka olib borishini yaxshi biladi.

SHU BILAN BIRGA, ekologik sivilizatsiyada tabiatga mehr yuksak darajada bo'ladi. Ekologik madaniyati rivojlangan inson shunchaki hayvonot va nabotot dunyosiga yaxshi munosabatda bo'lmaydi, balki jonkuyarligini o'z sa'y-harakatlari bilan yuzaga chiqaradi. Deylik, yovvoyi tabiatni asrash bo'yicha taklif va tashabbuslarni ilgari suradi va o'zgalarning shunday amallarini qo'llab-quvvatlaydi, brakonyerlikka qarshi jilla qursa, so'zi bilan kurashadi,

E K O L O G I K SIVILIZATSIYADA odamlar ta'limga yana ham ko'proq e'tibor beradi. Chunki bilim, xususan tabiat hodisalarini bilish kelajakni belgilashda muhim o'rin tutadi. Shu bois hamma atrof-muhit muammolaridan ko'proq xabardor bo'lib boradi. Tabiatni asrashning yangi usul



O'ZIMIZNI ASRAGAN BO'LAMIZ!

ham son-sanoqsiz baklajka, paket, qadoq qog'ozlari, tagliklar va yana qanchadan qancha narsalarni ko'rish mumkin. O'sha odamlar uyida chiqit narsani duch kelgan joyga otmaydi, tartib bilan bir idishga yig'ib, chiqindixonaga olib boradi. Lekin uyidan bir qadam tashqariga chiqdimi, tamom, bu yog'iga - "menga nima..." Aslida uyi uning yuzi bo'lganidek, bular ham uning yuzidir. Ivrigan uyidan qanchalar hayo qilsa, qolganlarining chirkinligidan ham shunchalar hayo qilishi kerak.

ANTUAN DE SENT-EKZYUPERI BOPLAB AYTGAN-DA: "Mana bunday qat'iy qoida bor: ertalab turasan, yuz-qo'lingni yuvib, o'zingni tartibga keltirasan, o'shanda birdaniga sayyorangni ham tartibga keltirib qo'yasan". Ya'ni tozalik uchun miqyosning ahamiyati cheklanmaydi, adib nazarda tutgan sayyora juda

mujassamdir". Leonardo da Vinchi "Tabiat hamma narsaning tadorigini ko'rib qo'ygan, qayoqqa qaramang, hamma yerda o'qib-o'rganish, saboq olish mumkin bo'lgan unsurlarni topish mumkin" deb uning fikrini tasdiqlagan. Inson tevarak-atrofnii kuzatib, o'zgarishlardan saboq olib, ilmiy xulosalarga kelgani, tajriba orttirgani - inkor etib bo'lmas haqiqat. Demak, endi tabiatga rahmatimizni bugungi taraqqiyotimiz darajasiga ko'tarmog'imiz kerak. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun ekologik madaniyatni rivojlantirish va keng yoyish zarur. Shunda ekologik sivilizatsiya sari odimlaymiz.

Bu quyidagilarda namoyon bo'ladi. Avvalo, resurslarni avaylab, tejab ishlatamiz! Ekologik ma'rifatli odamlar o'z-

ekotizimlarni muhofaza qilishga bosh qo'shadi. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan jamoatchilik harakatlariga a'zo bo'lib, uning faollari safidan joy oladi.

Ekologik sivilizatsiyada turmush tarzi barqaror bo'ladi. Zero ekologik ma'rifatli odamlar o'z organizmi tabiatini ham yaxshi biladi va turmushini shunga mos tarzda tashkillashtiradi. Bu faqat ertalabki jismoniy mashqlar yo sog'lom ovqatlanish emas, albatta. Barqaror turmush tarzi avtomobildan jamoat transportini afzal bilish, suv va energiyani tejab ishlatish, chiqindilarni saralash, imkon qadar ekologik noxush "izlari" kam bo'lgan mahsulotlar iste'mol qilish kabilarda ham namoyon bo'ladi.

Mana, shaxsiy avtomobilni olaylik. Shukrki, hozir ko'pchilikda bor. Buning "lekin"i shundan iboratki, odamlar bog'cha, maktab, bozor, ish, masjid, mehmonga o'z avtomobilida qatnashi ko'payib ketdi. Bu yonilg'i sarfini, yo'llarda tirbandlikni oshiryapti, havo ifloslanishini ko'paytiriyapti. Vaholanki, jamoat transportidan foydalanganda, bir kishi sarflagan energiya hisobiga yuzlab odam manziliga yetib oladi.

va uslublarini o'rganadi va bu boradagi ma'lumotlarni yoyadi.

Binobarin, ko'zimizga mayda, arzimas ko'ringan ekologik muammolar kelajakda katta inqiroz va bo'hronlarga aylanmasligi uchun ekologik madaniyatni muttasil rivojlantirib borish g'oyati muhim ahamiyatga ega. Bunda ota-onalar, tarbiyachilar, o'qituvchi-murabbiylar, mahalla faollari, yoshi ulug'lar peshqadam bo'lsin.

Ayni paytda o'zimiz ham tevarak-atrofga e'tiborliroq, mehrliroq bo'laylik, sigaret qoldig'ini suvga tashlash shart emas. Masalan, muzqaymoqni yeb bo'lib, qog'ozini duch kelgan joyga qo'yib ketish o'rniga, nariroqdagi kutiga olib borishga erinmaylik. Zora uyimizni toza tutganimizdek, avval mahallamiz (*qishloq-ovulimiz*), keyin tumanimiz, keyin shahrimiz (*viloyatimiz*), keyin mamlakatimizni ozoda tutishga o'rgansak.

BU HAQDA YANA KO'P GAPIRISH MUMKIN. Lekin so'zni muxtasar qilib, ekolog olim, Termiz davlat universiteti professori Xolmat Zokirovning so'zlari bilan bu fikrlarga

vaqtincha nuqta qo'yamiz: "Jamiki yuksalishlar asosida ma'naviyat tursa, barcha yo'qotishlar ortida ma'naviy tanazzul turadi. Bir tup archa bir yilda o'zida 6 tonnagacha suv to'playdi. Muttasil kislorod ishlab chiqaradi. Bir tilsiz archa umri davomida insonga xizmat qiladi, uning hayoti uchun o'zini bag'ishlaydi. Biroq bir vallomat boradi-da, 100 yillik archani besh-olti daqiqada saranjom qiladi. Uning bor maqsadi archadan uyiga ustun qilish yoki shu tilsiz-jag'siz daraxtning ikki-uch metrlik uyini - yerini tortib olish. O'tkinchi umrida bir tup nihol ekmagani bu odam Vatanga ham naf bermaydi, bironvga yaxshilik ham qilmaydi".

Anvar BOBOYEV,
Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy tadqiqot markazi
ilmiy xodimi



Vatan – Haq yurakka chizgan xarita

Saharlab yo'lga chiqdik. Mashinada Kattaqo'rg'onning bepoyon kengliklari bo'ylab yeldek uchib boryapmiz. Quyosh qirlar ortidan bo'zarib, erinib bosh ko'tarmoqda. Ba'zi-ba'zida uylarga ro'baro' bo'lamiz. Yo'l chetida ketayotgan qora kurtka kiygan o'rtabo'y, ozg'in kishi e'tiborimni tortadi. Chamasi o'ttizdan oshgan. Qo'lida cho'pontayoq. Chorvasini uyqusirab, haydab ketyapti. Quloqlari kesilgan qora it egasiga ergashib, dumini o'ynatgancha, bepisand ildamlamoqda.



Bu joylar kaminaga ko'pdan tanish. Tuproq yo'llari-yu, yerdan bo'rtib chiqqan do'nglik va bepoyon tekisliklar...

Harbiy qismga yetib kelganimizda shaxsiy tarkib kundalik mashg'ulotlarni olib borayotgandi. Kun yaxshigina sovuq. Ochiq maydon emasmi, shamol har tomondan kelib uriladi.

Bizni III darajali serjant Abduhoshim To'xtamatov qarshiladi.

U bilan avval ham ko'rishgandik – musobaqada.

– Mashg'ulotlar tushlikdan so'ng boshlanadi, – dedi u.

To'xtamatov ko'ngli ochiq, juda kirishimli yigit. Qirra burunli, ko'zlari katta-katta. Qoramag'iz. O'zi ozg'in, ammo bo'yi baland.

Yo'l xalta va boshqa narsalarimizni yotoqqa joylagach, poligonga yo'l oldik. O'quv joylarida harbiy xizmatchilar berilgan vazifalarni bajarayotgan ekan. Ular har bir topshiriqni shunaqangi tezkor va chaqqon ado etyaptiki, go'yo kino ko'rayotgandek mahliyo bo'lib qoldim. Guruh yetakchisi shaxsiy tarkibga nishon joylashgan hudud, ungacha bo'lgan masofa va boshqa zarur ma'lumotlarni to'plash, artilleriya qurollarini yo'naltirish usullarini o'rgatmoqda.

Hamkasbim – leytenant Xayrulla O'lmasov azamatlarni tasvirga olishga kirishadi.

Keyingi kuni quyosh ufqqa og'ishganda o'quvlar yakunlandi. Vazifalarda guruhlarining jipsligi, yetakchilarning boshqaruvchanlik mahorati mustahkamlandi.

Harbiy qismga qaytdik. O'shanda Abduhoshimni qayta kashf etdim.

– Yaqinda Erix Mariya Remarkning “Qarzga olingan umr” kitobini o'qib tugatdim, – dedi III darajali serjant To'xtamatov. – Juda go'zal yozilgan.

Qahramonlar taqdiriga qattiq achinadi kishi. Yuragim ezildi. Asar so'ngida mana shu joyim og'rib, achishdi, – u chap qo'lini musht qilib, ko'kragini urib qo'ydi. Shunda uning qo'llariga nazar solaman. Baquvvat. Tomirlari bo'rtib chiqqan. Mashg'ulotlarda toblangani aniq.

– Dardning begonasi bo'lmaydi, – dedim Abduhoshimning ko'zlariga qarab. – Qolaversa, adabiyot hamisha kishini tarbiyalaydi.

– Haa, tarbiyalaydi, – u gaplarimni qoshlarini chimirib olgancha takrorladi. Ovozi jonsiz va alamli chiqdi. So'ngra: – Shu adibning “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q” romanini avvalroq o'qigandim, siz ham o'qigan bo'lsangiz kerak?! – savol nazari bilan qaradi. Men boshimni silkib, tasdiqladim.

– Naqadar fojia yozilgan, a?! Urushda juvonnar bo'lgan yosh yigitlarning taqdiri har kimni o'ylantiradi. Betakror, biroq achinarli. Ishonsangiz, mutolaa davomida ko'zlarimga yosh kelgan. Nafratim qo'zigan. Besamar urush qurbonlari bo'lgan-da ular...

To'xtamatov daf'atan jiddiy tortdi. Peshonasi tirishdi. Qovog'ini ham uyib oldi. Qalin lablarini qattiq tishlab, bir nuqtaga tikilgancha jim bo'lib qoldi. Keyin shoshib so'zlay ketdi.

– Men nega harbiy xizmatchi bo'lganman, aytaymi? – Abduhoshim qalbining tubidan chiqib kelayotgan tug'yonni nazorat qilishga tirishayotgandi.

– Masalan, men onamning orzusi uchun shu kasbni tanlaganman, – dedim uning azobiga chek qo'yish uchun.

U chap qoshini ko'tarib, mayin jilmaydi. O'ng qo'li bilan bosh kiyimini oldi-da, sochlarini tez tartibga keltirdi. Uning harakatlarida notabiiylik bor edi. Nimadandir qattiq ranjiganini sezib turardim. So'ngra Abduhoshim mayda tosh to'kilgan yo'lakdan chiqib, tuproqli yo'lga tushib oldi va shaxt bilan yurib ketdi. Ortidan ergashdim. Biroz yurib, o'ng tomondagi tosh ustiga o'tirdi. Yoniga xotirjam cho'kdim.

– Vatanga bo'lgan muhabbat ustun kelgani uchun, – dedi u jiddiy turib. – Bolaligimdan mehrim bo'lgan. Bugun esa u yanada qaynab-toshmoqda, – Abduhoshimning ovozi xiralashdi. Tizzasiga tirab olgan chap qo'lini musht qilib, mahkam tugib oldi. Menga qaramay, gapida davom etdi:

– Vatan siz-u bizga omonat emasmi? – dedi III darajali serjant To'xtamatov to'g'riga qarab. Keyin o'zining savoliga o'zi javob berdi.

– Omonat. Mana shuning uchun ham uni hamisha asrash kerak. Chunki bu mening zaminim. Meniki. Xalqimning osoyishtaligi ham zimnamda. Olgan har bir nafasimda Vatan bor. Aytgan har kalomimda uningagina bo'lgan sevgi ufurib turadi.

Negadir yuragim uvusha boshladi. Tanamda mayin titroq turdi. O'rtaq og'ir jimlik cho'kkan. Abduhoshimdan xijolat torta boshladim. Turib ketsammi, degan xayol miyamga urildi. Keyin yonimdan maydaroq tosh olib, chamasi besh qadam narida qurib-qovjirab, so'ppayib turgan qushqo'nmasga qarata otdim. Lekin “o'q” nishonga tegmadi. Tosh tushgan joydan sovuq, sarg'imgir chang havoga ko'tarildi. Abduhoshim qah-qah otib kulib yubordi.

– Sizdan mergan chiqmaydi, – dedi u yelka osha menga qararkan. Shunda uning yuzidagi ifodani ko'rdim. – Tayyorgarlik ko'rmagansiz. Toblanmagansiz. O'qing! Izlaning va o'rganing! Kishi hamisha kasbining mohiri bo'lishi kerak. Shunga intiling!

Abduhoshim egnimdagi harbiy libosga tushgan changni o'ng qo'li bilan qoqib qo'ydi.

– Shu yo'ldamiz, – dedim. Ammo ovozimni o'zim arang eshitdim. Lablarim qurib qolgandi.

– Hamma ham yo'lga chiqishi mumkin, biroq manzilga eng zo'rlar yetib boradi, bilsangiz, – endi u qat'iyat bilan gapirardi.

– Ularni bedorlar, deymiz. Bilasiz, men artilleriyachiman. Biz uchun nishonni yo'q qilish muhim. Masofasi olis bo'lsa ham buning uddasidan chiqamiz. Chunki kasbiy bilimga kelganda xotirjamlikka berilmaymiz. Izlanishdan to'xtamaymiz.

U qo'li bilan oldimizda yastanib yotgan kengliklarni ko'rsatdi.

To'g'riga qarayman. Uzoqdan harbiy xizmatchilar bir chiziqqa terilib, harbiy qism tomon ketib borardi. Ular ko'p o'tmay, maydalashdi, so'ngra tamoman ko'zga ko'rinmay qoldi.

Qo'l telefonim jiringladi. Ko'tarsam – leytenant Xayrulla O'lmasov ekan.

So'ngra turishga taraddudlana boshladim. Abduhoshim maqsadimni angladi chog'i u ham sakrab o'rnidan turdi.

– Bo'lmasa, ketdik, – ust-boshini to'g'rilashga tushdi III darajali serjant To'xtamatov. Keyin bosh kiyimini bostirib kiydi. Qo'llarini keng yoyib, kerishdi. Ammo rangi hali ham bo'zarib turibdi.

Yonma-yon ketyapmiz. Ikkimizda ham bir xil qadam, bir xil nafas. Chamasi yigirma daqiqalardan keyin Abduhoshim taqqa to'xtaydi.

– Endi buyog'iga o'zingiz yetib olasiz, – dedi u jiddiy turib. – Guruhim bilan tunda mashg'ulotlarga qatnashamiz. Yo'q, siz xijolat tortmay ketavering. Xavotir olmang, bu yerlar ham o'z makoningiz. Munosib bo'lish kerak. Bo'ldi, gaplaringizga ishonaman, boshqa choram ham bormidi? – u jilmaydi. Ammo ozg'in yuzi g'azabdan ko'karib ketgandi.

Qo'l berib xayrlashdik. Unga tik qaray olmadim. Abduhoshim kelgan joyimiz tomon yugurib ketdi. Qadamlari katta-katta va tez edi. Men esa O'lmasov tomon odimladim. Nimadir bo'g'zimga tiqiladi. Achchiq. Alamli. Yerni qattiq-qattiq tepaman. Chang ustimga tirmashadi. Engashib, kiyimimni tozalayman. Tepamdan nimadir uchib o'tadi. Osmonga qarayman. Sarlochin kezib yuribdi. Do'stim, marhum shoir Mansur Jumayevning she'ri esimga tushadi. Ovozimni baland ko'tarib, uni yoddan o'qiy boshladim.

– Bir yurak yurtimdan olmas arita,
Bir yo'l umrimdagi ming jar, ming burum.
Vatan – Haq yurakka chizgan xarita,
O'chirib bo'lmaydi, o'lmasdan burun.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Mening armiyam – mening faxrim!



SHIMOLDA PRESS-TUR

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamda O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Qoraqalpog'iston bo'limi tashabbusi bilan harbiy xizmatchilarga yaratilgan sharoitlar, ularning ijtimoiy himoyasi masalalariga bo'lgan e'tiborni namoyish etish, shuningdek mudofaa sohasida axborot siyosati ochiqligini ta'minlash maqsadida Nukus garnizonida joylashgan Mudofaa vazirligining harbiy qism va muassasalariga press-tur tashkil etildi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlariga, harbiy xizmatchilarning xizmat o'tash sharoitlarini yaxshilashga qaratilayotgan e'tibor tufayli bugungi kunga kelib, ko'plab harbiy obyektlar, dala-o'quv maydonlarining infratuzilmasi butkul yangicha qiyofa kasb etib, zamonaviy ko'rinishga ega bo'lmoqda. Bularning barchasi harbiy kasb nufuzini oshirish, harbiy xizmatchilarga qulay va xavfsiz xizmat sharoitlarini yaratishga qaratilgan davlatimiz siyosatining muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Q o r a q a l p o g ' i s t o n Respublikasida ham amalga oshirilayotgan o'zgarish va yangilanishlar mamlakat mudofaa salohiyatini oshirish, harbiy xizmat nufuzini yuksaltirish, xalqimizda armiyaga bo'lgan yuksak ishonchni kuchaytirish, armiya va xalq o'rtasidagi rishtalarni mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Press-tur o'tgan yilda yangidan qurilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi binosidan boshlandi. Tadbirda ta'kidlanganidek, mudofaa ishlari boshqarmasi har bir o'spirin yigit uchun armiyaning ostonasi, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradigan maskan hisoblanadi. U eng sara qoraqalpog'istonlik yoshlarni armiya saflariga tayyorlashda xalqimiz va armiyamiz o'rtasidagi

mustahkam ko'priq vazifasini o'tamoqda.

Zamonaviy dizayn asosida qurilgan va aholiga xizmat ko'rsatish uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan ushbu binoda navbatchilikni o'tash uchun xona, boshqaruv punkti, arxiv, jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish uchun maxsus joy, chaqiriluvchilar va hisobda turuvchilar haqida elektron ma'lumotlar bazasini yuritish xonasi hamda 30 ta xizmat xonasi mebel, "qish-yoz" tizimida ishlaydigan sovutish tizimlari, kompyuter jamlanmalari va boshqa zarur buyumlar bilan to'liq jihozlandi.

Keyingi manzil mamlakat mudofaasi uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash, yoshlarda vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat tuyg'ularini yuksaltiradigan, dastlabki harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlaridan saboq beradigan Nukus garnizonidagi safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni hamda mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazi bo'ldi.

Majmuada safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni xizmatchilari tomonidan 12 ta jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi uchun alohida uch qavatli o'quv binosi yaratilib, unda 20 ga yaqin mashg'ulot xonasi, Amir

Temur va Jaloliddin Manguberdi o'g'itlari, qahramonliklarini o'zida namoyon etuvchi tematik sinflar, 120 o'rinni anjumanlar zali, badiiy adabiyot, o'quv qo'llanmalar va elektron nashrlarga boy kutubxona, Internet global tarmog'iga ulangan kompyuter sinfi, kompyuterlashtirilgan panoramali o'q otish sinfi, zamonaviy sport anjomlari va yopiq turdagi zalga ega bo'lgan sport majmuasi hamda tibbiyot punkti bugungi kun talablari asosida jihozlandi.

2019-yildan vazirlik tizimidagi mudofaa ishlari boshqarmalari huzurida chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda milliy armiyamiz uchun eng zarur kadrlar, ya'ni chaqiruv yoshidagi yigitlar beg'araz ta'lim olishadi.

Nukus shahrida joylashgan markazda uchta harbiy-texnik mutaxassislik, ya'ni "B" va "C" toifali haydovchilar, o'qchi-oshpazlar hamda dizelchi-elektriklar 3,5 oy davomida sifatli tayyorlab kelinmoqda. 2019-yildan bugungi kunga qadar Qurolli Kuchlarimiz saflariga jami 648 nafar tayyor mutaxassis, shulardan 274 nafar haydovchi, 222 nafar o'qchi-oshpaz hamda 152 nafar dizelchi-elektrik tayyorlanib, ularning barchasi muddatli harbiy xizmatga birinchilardan bo'lib chaqirtirilgan. E'tiborlisi, bu dargohda ta'lim olgan yoshlarning 50 nafardan ziyodi xizmatini kontrakt bo'yicha davom ettirayotgan bo'lsa, ayrimlari oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish baxtiga muayassar bo'lgan.

Markazda yoshlarni ma'naviy-axloqiy hamda harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga dastlabki harbiy saboqlarni o'rgatish uchun endilikda ikkita o'quv binodan iborat 15 ga yaqin nazariy mashg'ulot xonasi, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishga mo'ljallangan hamda o'qitilayotgan texnikalarning ichki mexanizmlari ish tartibini ko'rsatuvchi o'quv amaliyot binosi bunyod etildi.

Press-tur yakunida ommaviy axborot vositalari xodimlari safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyoni xizmatchilari va markaz o'quvchilari bilan suhbatlashib, ular bilan birga "harbiycha" tushlik qilishdi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati



Vatan madhi

Men ta'zim qilaman ona xalqimga



Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI

Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo.
Nechun Vatan, deya yer-u osmonin,
Muqaddas atayman, atayman tanho.
Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku, butun Osiyo.
Men nechun sevaman O'zbekistonni,
Bog'larin jannat, deb ko'z-ko'z etaman.
Nechun ardoqlarkan tuprog'ini men,
O'paman, tuprog'ing bebaho, Vatan!
Aslida tuproqni odil tabiat,
Taqsim aylagan-ku, Yer yuziga teng
Nechun bu tuproq, deb yig'ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?
Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Sababini aytgin, desalar menga.
Shoirona, go'zal so'zlardan oldin,
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:
Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga etgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon elgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar, Vatanlar, mayli, gullasin,
Bog' unsin mangu muzda ham, ammo,
Yurtim, seni faqat boyliklaring chun
Sevgan farzand bo'lsa, kechirma aslo!



Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri

TAVALLO

Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Ham oq yuvib-taragansan o'zing bizni.
Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Fidoymiz bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!
Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,
Alpomishlar ruhi yor har o'g'loningga.
Asragaymiz giyohing ham gulday o'pib,
Yovlar yaqin yo'lomagay qo'rg'oningga.
Adoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston.
Tuzing totib, unutanlar xor bo'ladi,
Ko'zlariga ikki dunyo tor bo'ladi.
Shodon daming ko'rolmagan yurtfurushlar,
Bir kun bir kaft qumlog'ingga zor bo'ladi.
Yoningda turgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!
Gul ko'ringan dashtingdagi giyoh-xasdir,
Soddadil-u ulug'vorlik senga xosdir.
Sevamisizki, cho'llaring ham bizga jannat,
Tuprog'ing ham Makka misol muqaddasdir.
Onadek ko'rgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!



Xurshid DAVRON,
O'zbekiston xalq shoiri

MUQADDAS SO'ZIM: VATANDIR

Ko'ngil kimni sevsan, u ko'zda turar,
Necha boqmasin ko'z, yana orzular.
Dil orzu-tilagi nima bo'lsa gar
Og'iz so'zga ochgach u tilga chiqar.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. XI asr

Bu ko'ngil Vatan der, ko'zimda Vatan,
Necha boqmasin ko'z, yana Vatan der.
Qalbimning eng chuqur yerida yotgan
Muqaddas, muqaddas so'zim Vatandir.
Tunlari ko'zimda yig'ladi Vatan,
Yig'ladi Varaxsha, yig'ladi Gurganj
Ko'zim tomchilari quyoshdan ulkan,
Ko'zim tomchilari goh qondir, goh ganj.
Bu ko'ngil erk dedi, ko'zimdadir erk,
Ko'zimda osmon-u erkin uchgan qush.
Ko'ksimda orzular befano, tirik,
Zanjirlar, sirtmoqlar uzildi naq tush.
Tunlari ko'zimda yig'ladi quyosh,
Yig'ladi yulduzlar, yig'ladi hilol.
Ko'zim tomchilari goh muzdir, goh tosh,
Ko'zim tomchilari - men sevgan ayol.
Bu ko'ngil ulus der, seni der, xalqim,
Sevgilim, ovunchim, ko'rur ko'zim sen.
Qorachig'im aro nur bo'lib balqding,
Yuragim tubidan oqqan so'zim sen.
Tunlari ko'zimda, xalqim, yig'lading,
Yig'ladi Navoiy, yig'ladi Bobur.
Ko'zim tomchilari goh gul, goh tikan,
Ko'zim tomchilari gohi navodir.
...Bu ko'ngil Vatan der, ammo ko'zimda
Yeladi Shiroqning oq arg'umog'i.
Yurak-ku Vatan der, ammo bo'g'zimda
Mashrabni mahv etgan dorning sirtmog'i.
Bu ko'ngil Vatan - der, ammo o'sha on
Ko'zimni yoshlalar Qutayba, Botu.
Yurak-ku Vatan der, ammo uyg'onar
Ko'zim tomchisida bosqinlar o'ti.
Bu ko'ngil Vatan der, ammo ko'ksimda
Xoin sanchgan pichoq shimiradi qon.
Yoturman sarg'aygan o'tlar ustida.
Cheriklar o'tadi janggohlar tomon.
Ang'izlar shivirlar qulog'imga jim:
"Tura qol, tura qol, kutmoqda Vatan".
Bu ko'ngil Vatan der va ona quyosh
Nurini shimirib, men tirilaman.
Va bag'rim tuyadi ozod, bepoyon,
Ulug' Vatanimning muhabbatini.
Uyg'ongan tomirda kuylay boshlar qon,
Kuylaydi Vatanga sadoqatini.
Boqurman tegranda yashnaydi o'lkam,
Boqurman tegranda kuylaydi bahor.
Va quyosh kezadi samoda ulkan,
Uning qo'shig'ida oliy tilak bor.
Bu quyosh bor ekan tirikdirman men,
Bu ko'ngil entikib yana Vatan der.
Qalbimning eng chuqur yerida yotgan
Eng qutlug', yagona so'zim Vatandir.



Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

BU SENING UYINGDIR

Ba'zan bog'larimni
Chulg'ar xavotir,
Ba'zan Yer sharidan
Og'irdir o'yim.
Olam - bir osmon,
Bir ob-u havodir,
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.
Bu dasht-u dalalar,
Bog'lar ham mendan,
Bu tuproq - bug'doy bo'y,
Handalak bo'yim.
Sening ko'ksingdagi
Dog'lar ham mendan,
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.
Sen Vatan deysan-u
Porlar yuzlaring,
Mening yurtim ham o'z
Rang-u ro'yimdir.
Talpinib kelguvchi
O'g'il-qizlaring -
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.
Sening osmono'par
Binolaringdan
Silkindi mening ham
Chinorday bo'yim.
Darz ketdi mening ham
Minorlarimga,
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.
Ba'zan nazar solsang
O'zga yurtlarga,
Bag'ri to'lib yotar
Olov, dudlarga.
Odamzod ketmoqda xor,
Uyum-uyum,
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.
Mening uka-singlim
Senga ham uka.
Singling to'y qilsa gar -
Mening to'yimdir.
Zamin - qon-qardoshlar
Yig'ilgan o'lka,
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.
Mening ham shahrimning
Ko'ksida dog'lar,
Uzmoqchi bo'ldilar
Boshlagan kuyim.
Dengizlar ortidan
Boqdingmi bir bor:
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim?!
Dunyo tomi uzra
Nurli halqalar,
Tinchlik - ermak emas
Va yo bir o'yin.
Aysalar birlashib
Davlatlar, xalqlar:
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.
Men yiroq ketsam gar,
O'rtangay onam,
Sening ham volidang
Yig'lagay yum-yum.
Onalar intizor turgan
Shu olam -
Bu sening uyingdir,
Bu - mening uyim.

Dolzarb mavzu

BOLALAR QO'LIDAGI GADJETLAR

foydalimi yoki zararli?

Oxirgi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda zamonaviy gadjetlarga qaram bo'lib qolayotgan bolalar, ularni bu ta'sirdan chiqara olmay, fig'oni falakka chiqayotgan ota-onalarning hasratiga tez-tez ko'zimiz tushyapti. "Aslida hamma ayb o'zimda. Jim o'tirsa, men uy ishlarimni qilib olaman, deb o'g'limning qo'lga 3 yoshligidayoq telefon berib qo'ydim. Yig'lamasdan, menga xalaqit bermasdan ikki-uch soat indamay, o'yin o'ynab o'tirardi. Bundan xursand bo'lardim. Hozir u 7 yoshda. Telefonga juda bog'lanib qolgan. Maktabga boradi, lekin o'qishni, dars qilishni yoqtirmaydi. Uyga kelishim bilan telefonimga yopishadi. Bermasam, jazavaga tushib, shunday baqir-chaqir qiladiki, qo'rqib ketaman. Juda asabiy. Avvalboshdanoq halovatimni o'ylab, katta xatoga yo'l qo'yganimni endi angalayapman", deydi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridan biri.



"Besh yoshli qizim kun bo'yi planshetdan ko'z uzmaydi, bundan zerikmaydiyam. Undan ko'ra, ko'chaga olib chiqib sayr qildirsam, istirohat bog'iga olib borib o'ynatsam, balki esidan chiqarar, dedim. Qayoqda, ko'chada ham telefon so'radi, bermasam hamma yoqni boshga ko'tardi. Dadasi "Mayli, indama, senga ziyoni tegmayapti-ku. Aqli kirsam, o'yin o'ynamay qo'yadi", deganlariga uni ancha vaqtgacha o'z holiga qo'ydim. Endi esa qizimdan havotirlanyapman. Juda odamovi, gapirgisi kelmaydi, bog'chada tengdoshlariga qo'shilolmaydi. Bir shifokor dugonam bularning hammasi gadjetlarning ta'siri deb aytdi. Eshitib, dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ketdi. O'z vaqtida bunga chora ko'rmaganimdan afsuslanyapman", deb yozadi yana bir yosh ona.

Xullas, bu borada yurtdoshlarimizning dardiga quloq tutsak, hammamizga tanish holat ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Ha, bugun aksariyat o'zbek oilalarida gadjetlar yosh bolalarni ovutish vositasiga aylangan. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalarning deyarli barchasi telefonning imkoniyatini biz kattalardan ko'ra yaxshiroq bilishadi. Ularga ertak

kitob-u o'yinchoqlar umuman qiziqmas, gadjetlar bo'lsa bo'ldi. Axir smartfonlar, planshetlar, noutbuklar - ularning har kungi hayot tarziga aylangan-da.

To'g'ri, hayotimizga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelgani yaxshi albatta. Lekin ulardan noto'g'ri foydalanish, ularga o'rganib qolish, ayniqsa bolalarning taqdiriga, hayot tarziga va salomatligiga salbiy ta'sir qilishini ko'pchilik ota-onalar afsuski, hali tushunib yetgani yo'q.

Yaqinda bir kitobda shunday ma'lumot o'qidim. Yosh bolaning aqli, hayot haqidagi ilk tushunchalari, so'z boyligi uch yoshgacha bo'lgan davrda shakllanar ekan. Shuning uchun ham shifokorlar bu davrda ota-onalardan farzandlari bilan ko'proq muloqot qilishni maslahat beradi. Biz esa nima qilyapmiz? Bolamizning qo'lga telefon berib, o'zimizdan uzoqlashtiryapmiz, unga umuman vaqt ajratmayapmiz, tarbiyasi bilan shug'ullanmayapmiz. Maqsad - farzandimizning bizga og'irligi tushmasa bo'ldi. Shunday qilib, tarbiyada katta xatoga yo'l qo'yyapmiz. Axir allomalarimiz bejizga aytmagan: "Ota-ona san'atkor, farzand esa san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir".



MUTAXASSISLARNING FIKRIGA KO'RA...

Gadjetlarga bo'lgan qaramlik, u bolalikdan shakllansa, oqibati giyohvand moddalarga bo'lgan qaramlikdan ham ayanchliroq bo'lar ekan. Shuningdek, doimiy ravishda kun davomida bir soatdan ko'proq telefon yoki kompyuterga tikilib o'tirish, insonning ruhiy holatini izdan chiqaradi. Unda tashqi dunyo bilan aloqa uziladi, maktab yoshidagi bolalarda darslarni o'zlashtirilmalik, tengdoshlari bilan til topishilmalik hamda asabiylik kuzatiladi.

Salomatlik tomonidan esa gadjetlardan ko'p foydalanadigan bolalarda ko'p hollarda o'z tengdoshlaridan aqliy jihatdan ortda qolish, ko'rish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Yana harakatsizlik natijasida ularda ortiqcha vaznning paydo bo'lishi, yurak va buyrak kasalliklari ham yuzaga keladi.

Bir necha yil oldin bu borada "AMA Pediatrics" jurnalida ma'lumotlar taqdim etildi. Bu ma'lumotlar ikki-uch yoshda gadjetlar yonida ko'p vaqt o'tkazish uch va besh yoshdagi rivojlanishning salbiy ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. Masalan, kuniga uch soat vaqtni gadjetlar bilan o'tkazgan to'qqiz va o'n yoshdagi bolalarda diabet bilan kasallanish, insulinga rezistentlik va yog' to'plamlarining paydo bo'lishi kabi omillarning yuqoriligi namoyon bo'lgan.

Elektron qurilmalar oldida kuniga ikki soatdan ko'p vaqt o'tkazish 15-17 yoshdagi o'smirlarda suyaklar mustahkamligining kamayishiga olib keladi.

"Preventive Medicine Reports" tadqiqotiga ko'ra, kuniga yetti soatni gadjetlar yonida o'tkazadigan o'smirlarda depressiyaning paydo bo'lish ehtimoli internetda bir soat vaqt o'tkazadiganlarga qaraganda ikki marta yuqoriroq.

"Lancet" tadqiqotlariga ko'ra, ekranlar oldida ikki soatdan ortiq o'tirmaydigan, yaxshi uxlaydigan va sport bilan shug'ullanadigan bolalarning miyasi yaxshiroq

ishlaydi. Yana tadqiqotlarda gadjetlar yonida o'tkazilgan har bir soat maktabdagi o'zlashtirishning pasayishiga ta'sir qilishi kuzatilgan.

Ijtimoiy jihatdan gadjetlar bolalarning keyinchalik jamiyatga moslashuviga to'sqinlik qiladi. Tushunarliroq tilda aytadigan bo'lsak, bolaligidan telefon va planshet bilan kun o'tkazgan bolalar doim elektron dunyo ta'sirida bo'lgani bois keyinchalik real hayotga ko'nika olmaydi va muloqotga kirisholmaydi. Chunki bu hayotdagi har bir hodisa ular uchun g'ayritabiiy tuyuladi. Natijada jamiyatda o'rin topa olmaydi.

MUAMMONING YECHIMI BORMI?

Albatta bor. Bunda ota-onaning shaxsiy namunasi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni farzandining kelajagini o'ylagan ota-ona, avvalo, o'zini isloh qilishi, tarbiyalashi kerak. Axir telefon o'ynama degan otaning o'zi telefon o'ynasa, televizor ko'rma degan ona barcha telekanallarda beriladigan seriallarni qoldirmay tomosha qilsa, ularning talabi mantiqsizlikdan boshqa narsa emasda. Axir qush uyusida ko'rganini qiladi, deb bejiz aytishmaydi-ku. Aql-zakovatli ota-ona farzandiga gadjetlardan foydalanishni tarbiyadagi yordamchi vosita sifatida ko'radi va undan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqadi. Masalan, bugungi kun talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, farzandlariga raqamli savodxonlikni o'rgatishga intiladi yoki onlayn ravishda til o'rgatadi.

Axir bag'rida ulg'ayayotgan o'g'il-qizining kamolini ko'rishni kim ham istamaydi deysiz. Tasavvur qiling, farzandingiz balog'atga yetib, baxt-saodatli hayot kechirsa, el uchun foydasi tegsa, siz u bilan har doim faxrlanib yursangiz... Ha,

orzuga ayb yo'q. Lekin bu borada faqat orzu qilishning o'zi kamlik qiladi. Shunday ekan, ota-onalar, farzandingiz tarbiyasiga hech qachon bee'tibor bo'lmang!

ULAR FOYDALI, AGARDA...

Aslida gadjetlar nafaqat qiziqarli, balki foydali vosita bo'lib, ulardan oqilona foydalanilsa, bolalar uchun yangi bilimlar olishga yordam beradi. Qiziqarli ma'lumotlarning cheksizligi, aqlni charxlaydigan o'yinlar, shaxsiy rivojlanishga xizmat qiladigan interaktiv dasturlar, elektron kitoblar, videodarslar - bularning barchasi ta'limdagi yangi imkoniyatlarni taqdim etish orqali farzandlarimizning intellektual salohiyatini rivojlantiradi. Shu orqali ularda ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Masalan, tadqiqotchilarning xulosasiga tayanadigan bo'lsak, raqamli o'yinlar va ta'limiy videolar bolalarga yangi bilimlar berishdan tashqari, ularni tahlil qilishga, kreativ fikrlashga o'rgatadi.

Darvoqe, iste'dodli bolalar uchun ham gadjetlarning foydasi juda katta. Chunki san'at, grafika, dizaynerlik va musiqa bo'yicha yaratilgan mobil ilova va dasturlar orqali ular o'z ijodiy imkoniyatini oshirishlari mumkin.

Unutmang, yangi zamon imkoniyatlari bo'lgan gadjetlar farzandim hayotiga xavf solmasin desangiz, ularni cheklashga intilmang! Chunki taqiq insonda o'sha narsaga nisbatan qiziqishini yanada oshiradi. Shuning uchun farzandingizga ulardan to'g'ri foydalanishni o'rgating! Tarbiyadagi bu uslubingiz ishonang, albatta samara beradi.

Podpolkovnik
Gulnora XODJAMURATOVA

SEMIRMANG, UZOQ YASHAYSIZ

Semizlik insonning jismoniy imkoniyatlarini cheklaydi. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarning semirishi maqsadga muvofiq emas. Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida ko'rsatkichlaringiz pasayib ketgani sizni tashvirlantirmayaptimi? "Ha, endi yosh o'tgandan keyin odam to'lishadi-da", deya o'zingizni ishonitirishga urinmang. To'lishish yosh ulg'ayishi belgisi emas, aksincha nosog'lom turmush tarzi oqibati. Yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, noto'g'ri ovqatlanish hosilasi. Demak, ozish uchun, eng avvalo, sog'lom turmush tarziga amal qilish va tana vazniga doimo e'tiborli bo'lish lozim. Qanday qilib deysizmi? Quyida shu haqda ma'lumot beramiz.

O'rta yoshli bir ayol ko'ylak tiktirgani chevarga boribdi. Tikuvchi uning gavda o'lchamini olarkan, navbat qorin qismiga kelganda, boshi qotibdi. "Biror muammo bormi?" deb so'rabdi buyurtmachi chevarning o'ylanib turganini ko'rib. Chevar xijolat aralash sekingina: "Belingiz qayerdaligini bilolmayapman", degan ekan.

Bu bir latifa bo'lsa-da, zamirida haqiqat yashirin ekanini inkor etolmaymiz. Chunki yoshi o'tgani sari aksariyat erkaklarning qorindor bo'lib qolishi yoki ko'pchilik ayollar gavdasining yumaloq shaklga kirishi bor gap. Xo'sh, nima uchun o'rta yoshli kishilar semira boshlaydi? Axir vaznning me'yordagidan oshiq bo'lishi bir qancha kasalliklar (*masalan, gipertoniya, qandli diabet, ateroskleroz singari*)ni yuzaga keltiradi-ku! Yana to'lishgan odam sal harakat qilsa, charchab qoladi, nafasi bo'g'ziga tiqiladi, oqibatda kamharakatlilikka odatlanadi. Qarabsizki, tanasida yog' to'planib, semizlik azobini torta boshlaydi.

– Yosh o'tgan sayin organizm quvvat sarfini kuchaytiruvchi gormonlarni kamroq ishlab chiqaradi, – deydi gastroentolog shifokor Aziz Shukurov. – Demak, ovqatlanish tartibi buzilib, organizmdagi o'zgarishlar kuchaysa, o'z-o'zidan ortiqcha vazn to'planadi. Bundan tashqari, o'rta yoshlilarning kamharakatlilik natijasida iste'mol qilingan taomlar yaxshi hazm bo'lmaydi. Ma'lumki, hazm bo'lmagan ovqatlar yog' hujayralariga birikib boraveradi. Natijada kishining to'lishishiga qulay imkon yaratiladi. To'g'ri, ba'zilar yoshi o'tganda ham qotma va xushbichimligicha qoladi. Buning sababi ularning hayot tarzi serharakat kechadi, o'zlari ham semizlikka moyil bo'lmaydi, organizmi yog' zaxiralarini to'plash o'rniga uglevodlarni qayta ishlashga sozlanadi. Ayrim hollarda semirishga sabab bo'luvchi jinsiy gormonlar (*estrogen, gestagen, testosteron*) muvozanatini saqlash uchun odam sog'lom turmush tarziga amal qilishi, ya'ni ma'lum vaqtda ovqatlanib, belgilangan paytda dam olishi hamda jismoniy faol bo'lishi lozim.

Muhim qoidalar

Odatda, biz yengil va shosha-pisha nonushta qilishga o'rganganmiz. Aslida bu noto'g'ri. Chunki tongda yeyilgan taom uglevod va oqsillarga boy hamda to'yimli bo'lishi kerak. Axir organizmimiz kun davomida sarflaydigan energiyaning o'rnini aynan nonushtada yegan taomimiz to'ldiradi. Shunday ekan, eng avvalo, to'yimli nonushta qilishga odatlanish kerak. Tamaddi qilish uchun ortiqcha 15 daqiqa vaqtigizni ayamasangiz, ijobiy natijasi sizni albatta quvontiradi.

Osh, manti, qozonkabob, lag'mon... Ishtahangiz ochilib ketdi-a? "Tushlikda maza qilib polovxo'rlik qilaman", yoki "Seli oqib turgan kabob yeyman", degan fikr xayolingizdan o'tgani shubhasiz. Xo'p, tushlikda o'zingiz istaganingizdek ovqatlaning. Lekin me'yorni biling! Orangizda tushlikda ham suyuq, ham quyuc ovqat yeb, ortidan shirinlik iste'mol qiladiganlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday ovqatlanish natijasida oshqozon o'z vazifasini beqam-u ko'st bajarolmaydi va shu tufayli ovqat hazm qilishda muammolar yuzaga keladi. Qadimgi hakimlardan, kasallik nima, deb so'raganda, yeyilganni hazm qilmasdan, ustiga taom yeyish, deb aytishgan ekan. Haqiqatan ham semizlikning va yana kasalliklarning asosiy sabablaridan biri taomning hazm bo'lishini kutmasdan, ovqatning ustiga boshqa taom yeyishdir.

Ertalab shohona, kechqurun faqirona ovqatlan, degan naqlni eshitganmisiz? Ozishni istasangiz, mana shu naql hech qachon yodingizdan chiqmasin. Negaki kechqurun yeyilgan yog'li va kaloriyalı taom sog'lig'ingizning eng katta dushmani. Shuning uchun ham kechki ovqatda yengil tamaddi qilishga o'rganing, taomnomangizdan faqat suyuq ovqatlar o'rin olsin. Uyqu oldidan tamaddi qilmang, tungi ovqatlanish oshqozon osti bezini qo'shimcha ravishda ishlashga majburlaydi. Bundan tashqari, tunda ovqat hazm qilish jarayoni sekinlashgani sabab luqma to'liq hazm bo'lmaydi va u tana vaznining ortishiga olib keladi. Yodingizda bo'lsin, so'nggi bor ovqatlanagan vaqt bilan uyquga yotish orasida 4 soat farq bo'lishi shart.

Ochlik ozdiradi (mi?)

Demak, tana vaznini me'yorida ushlab turish uchun eng birinchi o'rinda sog'lom turmush tarziga amal qilish va sog'lom ovqatlanish muhim ahamiyatga ega ekan. Goh-gohida (*masalan, haftada bir kecha-kunduz*) och yurish odam uchun har tomonlama foydali. Birinchidan, ochlik organizmni tozalaydi, qonni zaharli moddalardan xalos qiladi. Umuman, ochlik kishiga ko'tarinki ruh va xushchaqchaqlik ham baxsh etadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, tez-tez och yuradigan kishilar oganizmida quyidagi o'zgarishlar kuzatiladi:

- ichki himoya kuchlari ortadi;
- fermentlar faolligi oshib, chirigan, patologiyaga uchragan to'qima va hujayralar so'riladi;
- organizm chiqindilardan tozalanadi;
- moddalar almashinuvi yaxshilanadi;
- oqsillar biosintezi jadallashib, hujayralarda modda almashinuvi kuchayadi;



– kuchsizlangan va ortiqcha to'qimalar so'rilib, ular o'rniga yosh to'qimalar paydo bo'ladi, organizm yasharadi. Umuman, ochlik muolajasini o'tkazib turgan kishilar tanasidagi barcha a'zo va to'qimalar fiziologik orom oladi.

Shuningdek, ochlik muolajasi davomida inson ortiqcha vaznini yo'qotish barobarida ko'plab kasalliklardan ham xalos bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bu muolajani qilishdan oldin, albatta shifokor bilan maslahatlashish zarur. Shifokor ochlik kunlarida nima bilan oziqlanishni har bir kishining organizm holati va ruhiyatiga qarab belgilaydi. Chunki gipertoniyaning og'ir darajasida, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak yaralari zo'raygan paytda bemorlar och yurishlari mumkin emas. Ko'pchilik odamlar semizlikdan qutulishni va shu yo'l bilan salomatliklarini tiklashni istaydilar, biroq hamma ham ochlikka toqat qilolmaydi. Bunday toifadagi odamlar ozdiradigan qat'iy parhezlardan kechib, odatdagi kundalik ovqati miqdorini 7-8 ga bo'lib, tez-tez iste'mol qilganlari ma'qul. Chunki maxsus tadqiqotlar natijasiga ko'ra, bo'lib-bo'lib ovqatlanishda shuncha taomni bir kunda uch mahal bo'lib yegandagiga qaraganda kishining og'irligi ikki marotaba kamayar ekan. Shuningdek, bu ovqatlanishlar chog'ida shirinliklar, yog'lar va xamirli ovqatlarni kam iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Ko'proq piyoda yurish ham ozdiradi

Ha, to'g'ri eshitingiz. Ko'p piyoda yurish ozdiradi. Chunki qadam bosish davomida inson tanasida qon bosimi va xolesterin me'yorlashadi. Bu organizmdan ortiqcha yog'lar chiqib ketadi, deganidir. Shuningdek, mutaxassislar organizmning umumiy chidamliligini va yurak-qontomir, nafas a'zolari imkoniyatlarini oshirishda piyoda yurish sport zalidagi mashg'ulotlardan anchagina samarali ekanini aytishadi. Chunki yurish vaqtida tana harakatlari va mushaklar qisqarishi

barcha a'zo va to'qimalarda, qorin bo'shlig'i, kichik chanoq a'zolarida qon aylanishini kuchaytiradi, shu bilan birga qon tarkibida kislorod, ozuqa moddalari miqdorini oshiradi.

Darvoqe, vazn tashlash uchun qancha qadam, masofa va vaqt yurish kerakligi haqida aniq formula yo'q. Boshlanishiga doimgidan ko'proq yurish kerak. Masalan, odatda, kuniga ming qadam yuradigan bo'lsangiz, unda 5 ming qadam yurishga harakat qiling! Bir haftadan keyin qadamlar sonini sekin astalik bilan ko'paytirib borsangiz bo'ladi.

Fastfudlardan voz keching!

Unutmang, fastfudlar tez semirtiradi. Agar siz unga o'rganib qolgan bo'lsangiz, undan voz keching biron qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuning uchun bu ishni asta-sekin amalga oshirganingiz ma'qul. Masalan, bu oy gazlangan shirin ichimliklar ichishni to'xtatib, keyingi oy kartoshka fri iste'mol qilishni. Shu tariqa bosqichma-bosqich kamaytirib borasiz.

Ha, darvoqe, kechasi ijtimoiy tarmoqlarda fudbloggerlarning bloklarini kuzatishga chek qo'ying. Chunki bunday postlar sizda ochlik hissini kuchaytiradi. Yana bir maslahatimiz, televizor qarshisida ham ovqatlanmang! Chunki bunday vaziyatda siz keragidan ortiq ovqat yeb qo'yganingizni bilmay qolasiz.

Eng avvalo me'yor bo'lsin!

Shifokorlarning fikricha, yetarlicha vaznga ega bo'lmaslikning ham salbiy tomonlari bor ekan. Shuning uchun vazningiz yetarli bo'lmasa yoki me'yordan ortiq bo'lsa, darhol shifokorga murojaat qiling! Eng muhimi, o'z vaqtida ovqatlanib, ko'proq harakat qilsangiz, semizlik ham, ozg'inlik tashvishi ham sizni bezovta qilmaydi.

G. HOJIMURODOVA tayyorladi.

Qutlov



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFASIGA
KO‘MAKLASHUVCHI
“VATANPARVAR” TASHKILOTI**

Namangan viloyati kengashi jamoasi barcha yurtdoshlarimizni, diyorimiz tinchligi va osoyishtaligi uchun matonat bilan xizmat qilayotgan harbiylarni, Qurolli Kuchlar xizmatchilarini O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan samimiy tabriklaydi.

***Bayramingiz muborak bo‘lsin,
tinchligimiz posbonlari!***



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFASIGA
KO‘MAKLASHUVCHI
“VATANPARVAR” TASHKILOTI**

Xorazm viloyati kengashi jamoasi osoyishtaligimizning mustahkam qalqoni bo‘lgan yurtimiz posbonlarini O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bilan samimiy qutlab, Vatan ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi mas‘uliyatli va sharaflil xizmatida ulkan zafarlar yor bo‘lishini tilaydi. Ona diyorimizdan tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, xonadonlarimizdan fayz-u baraka arimasin. Yurtimiz tinch, zaminimiz osoyishta, osmonimiz musaffo bo‘lsin!

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFASIGA
KO‘MAKLASHUVCHI “VATANPARVAR”
TASHKILOTI**



Buxoro viloyati kengashi tasarrufidagi Romitan tumani o‘quv sport-texnika klubi jamoasi barcha harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari hamda “Vatanparvar” tashkiloti tizimida faoliyat yuritayotgan fidoyi hamkasblarimizni mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bilan chin dildan muborakbod etadi.

***Kasb ayyomingiz qutlug‘ bo‘lsin, aziz
Vatan himoyachilari!***


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFASIGA
KO‘MAKLASHUVCHI
“VATANPARVAR” TASHKILOTI**

Samarqand viloyati kengashi texnik va amaliy sport turlari markazi jamoasi mamlakatimiz Qurolli Kuchlari saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolarini Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 33 yilligi hamda 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni bilan qutlaydi.

Shon-u shavkatingiz, sharaf-shoningizga ko‘z tegmasin, aziz tinchligimiz posbonlari, Vatanimiz qalqonlari!



Premyera



SO'NGGI PARVOZDAN QO'RQMAYMAN

Milliy armiyamizning bugungi kundagidek mukammal shakllanishida o'zbek kino industriyasining o'rni va rolini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli. Chunki mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda armiyadagi kadrlar bo'shlig'ini mahalliy mutaxassislar bilan to'ldirishda "Sardor-1" va "Sardor-2" filmlarining ahamiyatli bo'lganini soha mutaxassislari juda yaxshi bilishadi.

O'tgan vaqt mobaynida mavzuga oid 30 dan ortiq tarixiy, badiiy hamda hujjatli film, serial suratga olindi va "Buyuk Amir Temur", "Mendirman Jaloliddin", "Elparvar", "Sardor", "Vatan ostonasi", "Tinchlik ortida", "Matonat", "Hayot" kabi kinoasarlari nafaqat o'zbek milliy kino sanoatida, balki harbiy-vatanparvarlik ideologiyasini targ'ib qilishda o'ziga xos natijalarga erishdi. Shunga qaramay, bu natijalarni yutuq sifatida baholashga hali erta. Chunki hali bor imkoniyatlar ishga solinmadi. Boy tariximiz hamda mavjud imkoniyatlardan to'laonli foydalansak, harbiy-vatanparvarlik yo'nalishida shoh asarlar suratga olinishi ta'minlanadi. Davlatimiz rahbarining 2021-yilgi "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni shunday deyishimizga asos bo'ladi.

14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining

33 yilligi bayrami arafasida bu borada amalga oshirilgan ishlar samarali davom etayotganiga guvoh bo'ldik. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi "Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi" davlat unitar korxonasi hamda Mudofaa vazirligi hamkorligida "Yangi O'zbekiston kinosolnomasi" turkumi doirasida suratga olingan hujjatli filmlar premyerasi muxlislar e'tiboriga namoyish etildi.

Rejissyor Saidolim Ma'sudxonov va ssenariy muallifi Shoyim Bo'tayev boshchiligidagi ijodiy guruh ishtirokida ekran yuzini ko'rgan "Zamonaviy harbiy institut", "Ulug'vor qalb bilan qutlug' saflarga", "Yangi O'zbekiston lochinlari" hujjatli filmlari mamlakatimizdagi uchta oliy harbiy ta'lim muassasalari faoliyatidan hikoya qiladi. Shuning uchun mazkur uchta hujjatli filmning dastlabki tomoshabinlari ham Vatan himoyachilaridan iborat bo'ldi.

Milliy kino san'ati saroyida bo'lib o'tgan premyera namoyishi jarayonida mutaxassislar tomonidan ijodkorlar ishiga baho berildi. Kinematografiya

agentligi va Mudofaa vazirligining esdalik sovg'alari topshirildi. Ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan uyushtirilgan intervyularda film qahramonlari sifatida ekranda gavdalangan ofitserlar, kursantlarning haqiqiy Vatan himoyachilariga xos jumlasini yana bir marta jarangladi.

– Har doim parvozga xuddi so'nggisiga chiqqanday chiqaman. Odam o'zining o'lishini bilsa, o'lmaslik uchun qattiq harakat qiladi. So'nggi parvozdan qo'rqmayman. Agar u Vatanim tinchligi yo'lida bo'lsa.

Premyera "Yangi O'zbekiston lochinlari" hujjatli filmidagi Shermuhammad Toshmuhammedovning ushbu so'zlari bilan yakunlandi. Shermuhammad. Bu ism unga Sariosiyo va Uzun voqealari qahramoni Shermuhammad Ashirov sharafiga berilgan. Uning xizmatdoshi, hozirda polkovnik unvonida xizmat burchini o'tayotgan Bahodir Saliyev marhum do'stining xotirasi uchun o'g'lini uning ismi bilan atagan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi harbiy aviatsiya instituti 5-bosqich kursanti Shermuhammad Toshmuhammedovning yuqoridagi so'zlari tinchligimiz yo'lida mardlarcha halok bo'lgan qahramonga munosib izdosh ekanining haqiqiy isbotidir. Chunki u o'ziga berilgan ismning ham, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishning mas'uliyatini ham har bir nafasida his qila oladigan yurt o'g'lonidir. Uning bosh rollardan birida talqin etilishini esa "Yangi O'zbekiston lochinlari" hujjatli filmi ijodkorlarining yutug'i sifatida baholash mumkin.

A. RO'ZIBOYEV

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Mastura Qurbonova

Buyurtma: F-5889
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 32 422 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqib boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya